

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 240 (1301), 2024-yil 26-noyabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

AVTOMOBIL SANOATIDA ELEKTROMOBILLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH KO'ZDA TUTILGAN

Prezident Shavkat Mirziyoyevga avtomobil sanoatida qilinayotgan ishlar va 2025-yilga mo'ljallangan rejalar haqida axborot berildi.

Mamlakatimiz sanoatida avtomobilsozlik ulushi 10 foizni tashkil etadi. O'tgan o'n oyda 338 mingta yangil avtomobil ishlab chiqarilgan. 1 ming 400 turdagi butlovchi qismlar mahalliy ishlab chiqarish orqali ta'minlanib kelingan. Iqtisodiy choralar natijasida sohada tannaxr 4 foiz kamaygan. Eksport 455 million dollar bo'lgan.

"O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati raisi oldindagi rejalar va vazifalar yuzasidan axborot berdi.

Kelasi yil 450 mingta avtomobil ishlab chiqarish va eksportni 700 million dollarga yetkazish maqsad qilingan. Hududiy korxonalar bilan kooperatsiyani kuchaytirib, mahalliy ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqilgan. Xususan, 700 ta detalni o'zlashtirish bo'yicha 325 million dollarlik 63 ta loyiha amalga oshiriladi.

Ma'lumki, Jizzaxda "BYD" kompaniyasi bilan hamkorlikda elektromobil zavodi barpo etilgan. Hozirda u yerda Chazor va Song Plus Champion kabi mashinalar ishlab chiqarilmoqda. Kelgusi yillarda modellar qatorini kengaytirish rejalashtirilgan. Qiymati 300 million dollarlik ikkinchi bosqichda elektromobillar sonini yiliga 200 ming donaga, uchinchi bosqichda 500 ming donagacha yetkazish ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari xitoylik hamkorlar bilan kelishib, qo'shimcha quvvatlarini qurish, elektromobillar uchun butlovchi va ehtiyot qismlarni izchil o'zlashtirib borish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Kooperatsiya asosida mahalliy korxonalariga buyurtmalarni shakllantirish vazifasi qo'yildi.

O'ZA

AHOLINI OZIQ-OVQAT BILAN TA'MINLASH ENG DOLZARB VAZIFA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-noyabr kuni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, paxta va g'alla hosildorligini oshirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari yaqinda bo'lib o'tgan parlament majlisidagi nutqida aholi soni ko'payib borayotgan hozirgi sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb vazifa ekanini ta'kidladi.

Haqiqatan, yurtimiz aholisi yiliga qariyb 1 million nafarga o'sib boryapti. Yer va suv manbalari esa cheklangan. Shu bois, ichki bozor barqarorligini omilkorlik va hosildorlik orqali ta'minlash mumkin.

Taqdimotda qishloq xo'jaligi vaziri shu boradagi rejalarini bayon etdi.

Kelgusi yil 4 million 800 ming gektarda ekinlar yetishtirish mo'ljallangan. Shundan 2 million gektardan ziyod yerda meva-sabzavot, kartoshka, dukkakli va poliz mahsulotlari ekiladi. Ularning dalalarga joylashtirilishi va hosilning zaxiraga jamlanishi monitoring qilib boriladi. Xususan, aholiga birlamchi zarur bo'lgan 10 turdagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining tizimli hisob-kitobi yuritiladi. Bunda har bir tuman kesimida qanday mahsulot yetishtirilishi va ichki bozor uchun qancha zaxira qilinishi muhim bo'ladi.

Ma'lumki, Prezidentimiz tashabbusi bilan 260 ming gektar yer 800 ming aholiga dehqonchilik qilish uchun bo'lib berilgan edi. Shuningdek, Sayxunobod tajribasi asosida tomorqalarda mahsulot yetishtirish qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu odamlarni, ayniqsa, yoshlarni ish o'rni va daromad bilan ta'minlashda to'g'ri yo'l bo'lganini hayotning o'zi ko'rsatdi. Shuningdek, bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'p yetishtirilib, ularning narxi keskin oshib ketmasligida muhim omil bo'ladi.

Endi bu ishlarining sifatini oshirib, ajratilgan yerlar va tomorqalardan unumli foydalanish, aholiga ilmiy va amaliy jihatdan ko'maklashish zarur. Bundan tashqari, tumanlarning o'zi qishloq

xo'jaligiga grant va texnik ko'maklar jalb etishi, ilg'or texnologiyalarni qo'llashi talab etiladi.

Davlatimiz rahbari xorijiy tajribani o'rganib, kartoshkachilik tizimini takomillashtirish va hosildorligini oshirish zarurligini ta'kidladi.

O'tgan yilgi qishda 9 ming gektar bog' va 4 ming gektar uzumzorni sovuq urgan edi. Oqibatda 207 ming tonna hosil nobud bo'ldi.

Prezidentimiz bunday ob-havo sharoitlarida dehqonlar ko'rgan zararining oldini olish bo'yicha topshiriq bergan edi. Shunga muvofiq, xorijiy mutaxassislar bilan birga "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtalash to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Uning qabul qilinishi dehqon va fermerlarning iqtisodiy himoyasini ta'minlaydi.

Paxtachilikda xorijiy navlarni ekishning natijadorligi tahlil qilindi.

Davlatimiz rahbari bu borada klaster, fermer va sanoat korxonalarini fikrini o'rganib, masalaga ilmiy yondashish, fermerlarni ilg'or agrotexnologiyalarga o'qitish muhimligini ta'kidladi. Zamonaviy paxta terish mashinasi va aholi tomorqalari uchun kichik agrotexnikalar ishlab chiqarish bo'yicha topshiriqlar berildi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida barcha hududlarda daraxtzorlar barpo etilmoqda. Shunday bog'lar atrofi hamda dalalada otdamlarga manfaat keltiradigan ekinlar yetishtirish mumkinligi aytiladi.

Taqdimotda viloyat va tumanlarda qishloq xo'jaligi sohasida boshqaruv tizimini isloh qilishga oid takliflar ham ko'rib chiqildi.

O'ZA



DIQQAT, YANGILIK:

"YANGI O'ZBEKISTON" GAZETASI VA SAYTINI

QORAQALPOQ TILIDA ham o'qing

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita g'amxo'rligi va alohida e'tibori bilan Qoraqalpoqiston Respublikasida misli ko'rilmagan katta tarixiy o'zgarishlar bo'lmoqda.

Bugungi zamon ruhi va shiddati, Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan nihoyatda keng ko'lami islohotlar mazmun-mohiyati, maqsadi, avvalo, xalqimizning bugungi hayotidan roziligiga erishishga, yurtdoshlarimiz turmushi farovonligini ta'minlashga qaratilgan bilan ahmiyatlidir.

Hayotimizdagi bu kabi yangilanishlar eng olis hududlarimizda ham bo'y ko'rsatayotgani barchamizga yaxshi ma'lum, albatta.

Bu boradagi yangiliklar mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka, ko'p millatli xalqimizga yetkazish esa bugungi davr jurnalistikasi, xususan, "Yangi O'zbekiston" gazetasi, tahririyatimizning rasmiy www.yuz.uz sayti oldidagi bosh vazifamiz deb bilamiz.

Shu maqsadda bugundan e'tiboran, "Yangi O'zbekiston" gazetasi tahririyati jamoasi g'oyat e'zgu tashabbusni amalga oshirishga qo'llay boshladi. Endilikda "Yangi O'zbekiston" gazetasidagi dolzarb, tahliliy, ma'rifiy, publisistik maqolalarni qoraqalpoq tilida ham o'qishingiz mumkin bo'ladi.

Buning uchun siz gazetamizda chop etilgan maqolalardagi QR-kodni skaner qilasiz va shu orqali www.yuz.uz saytiga o'tib, maqolaning elektron shaklini qoraqalpoq tilida o'qiyasiz.

YANA BIR YANGILIK

Davlatimiz rahbari doim ta'kidlab kelayotgani — milliy kontentni yaratish va uni xalqimiz orasida keng targ'ib qilish, o'z navbatida, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunderligini ta'sirchan vositalar orqali jamoatchilikka yetkazish maqsadida www.yuz.uz saytinin qoraqalpoq tilidagi versiyasi ishga tushirildi.

Endi sizda kunning dolzarb yangiliklari, mamlakatimiz hayotiga doir va xalqaro miqyosdagi xabarlar, yurtimizda amalga oshirilayotgan katta islohotlarning batafsil sharhi bilan www.yuz.uz saytida qoraqalpoq tilida ham tanishib borish imkoni bor.

Qoraqalpoq tilidagi mutolaa zavqi barchamizga qutlug' bo'lsin, og'izburchiligimizga ko'z tegmasin, aziz mushariylar!

PREZIDENT DARAXT EKMOQDA...



Toshkentning ikkinchi belbog'i deyilish Katta halqa yo'lidan kelayotgan Prezident kortegi g'uvillab kelib to'xtadi. Ochiq havoda, charaqlab turgan quyosh va davlat rahbarini kutib turgan yuzlab yurtdoshlarimiz chehralaridagi quvonch o'zgacha ruh, o'zgacha shukuh bag'ishlab turgandek edi chargin'on kunga. Prezidentimiz mashinadan tushib, to'g'ridagi shiypon tomon shaxdam qadam tashladi. Hamyurtlar bilan samimiy salomlashish asosida bu gal shiyponga yoki qaysidir yangi korxonaga, qaysidir yig'ilish minbari, mahalla yoxud klaster huzuriga emas, to'g'ri dalaga burildi. Qo'liga belkurak olib, daraxt ekishga kirishdi. Sinchkov odam belkurak ushlashidanoq Prezidentning, eng avvalo, oddiy inson ekani, qishloqda tug'ilgani, dasht-u dalalarda o'sib ulg'ayganini darrov fahmlaydi. Prezident chin bog'bon singari yosh niholning nozik ildiziga tuproq torta boshladi.

kazzoblar! Bombalar-u snaryadlarga ketayotgan milliard-milliard mablag'larni o'z fuqarolarining farovonligiga sarflasa bo'lmaydimi bu ko'mamaklar?! Dunyo qachon xalos bo'ladi tinchlik qassoblaridan? Vayronkorlik, jonxo'rlik qilish o'rni daraxt ekish bo'larkan-ku, axir!

Prezident daraxt ekmoqda...

Tasodif yoki ko'z-ko'z qilish uchun emas, buz'unchilarga, bosqinchilarga, tabiat yovuzlariga qarshi isyon sifatida nihol o'tqazyapti mustahkam zamin quchoq'iga. Uch yildan oshdi Prezident tomonidan "Yashil makon" umummilliy harakati boshlanganiga. Loyiha chinakam xalq harakatiga aylandi. Avvalgi yillarda Yangi Toshkent, Sergeli, Chilonzor tumanlarida bo'lgan ko'chat ekishda davlatimiz rahbarining o'zi bosh-qosh bo'lgan edi. Shundan so'ng qishloq va shaharlarda, yo'l yoqalarida xiyobonlarda million tuplab daraxt va gul ko'chati ekildi.

Oliy Majlis palatalarining o'tgan hafta bo'lib o'tgan uch kunlik yig'ilishlari adog'ida esa davlatimiz rahbari 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qildi. Muqaddas zaminda obodlik bo'lsin, bog'lar ko'paysin, gullar bargida chang-g'ubor bo'lsin, anhorlar, daryolar suvi musaffo bo'lsin, qishloqlar, dalalar, quru adirlar chamanga burkansin, odamlar musaffo havodan to'yib-to'yib nafas olsin, to'yib-to'yib yashasin, rohat qilib yashasin, degan muhtasham orzularning mo'tabar iforlari edi bu!

Bugun nafaqat biz, balki dunyodagi ko'plab mamlakatlar iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol his qilmoqda. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, qazilma yoqilg'ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarining ko'payishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog'lig'iga zarar yetkazmoqda, — deya ta'kidladi Prezident Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida. — Biz bu masalaning oqibatlarini oldindan ko'rib, mazkur yo'nalishda katta ishlarni olib boryapmiz. Bundan uch yil avval boshlangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi hozirgi kunga kelib, chinakam xalq harakatiga aylandi. Ushbu dastur qator hududlarda, jumladan, Orolbo'yidagi ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Prezident daraxt ekmoqda...

— Qani edi dunyodagi hamma davlatlarning rahbarlari bizning Prezidentimizday bo'lsa, — havas va faxr bilan sekin shivirladi senator Husan Ermatov. — Afsuski...

"Afsuski..." degan bittagina so'z nafaqat senator Husan Ermatovning, balki shu lahzalarda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida barpo etilayotgan yangi boqqa ko'chat ekish uchun kelgan barcha yurtdoshlarimizning qalbidan ne-ne o'y va tashvishlar kechayotganini ifodalab, anglatib turgandek edi.

Ha, afsuski, dunyo behalovat. Dunyo chaqaloqning kipriklarida, namozshomgul yaproqlarida omonat qalqib turgan shudring tomchisidek qaltirab turibdi. Ayrim davlatlarning rahbarlari tinchlikni avaylash, odamlarga mehr ko'rsatish, ko'chat ekish, tabiatni asrash o'rni qirg'inbarot urushlarga sarkardalik qilmoqda. Ming-minglab odamlarning uylari vayron, dillari qabriston, ko'chalari go'riston bo'lishiga sababchi bo'lyapti. Yo'lmdan yurmasang, menga bo'yin egmasang, aytganimni qilmasang, ko'zingga ko'rsatib qo'yaman qabilida Yer yuzini ostin-ustun

qilmoqqa jahd qilgan "shoh"lar yovvoyi maxluqdek o'kirmoqda, pishqirmoqda, o'kirmoqda. Bolalar yetim, onalar beva, insonlar vatangado bo'lmoqda. Tabiat esa... Hammasidan ko'p azob chekyapti ona tabiat. Har otigan o'qdan, har bombaning dahshat bilan portlashidan yam-yashil bog'larning kuli ko'kka sovurilmoqda, ona tabiat tanklarning temir tovonni ostida maydalanib, ingrab, jon taslim qilmoqda. Qachongacha davom etadi bunday xo'rliklar, zo'ravonliklar, jonxo'rliklar, "men zo'rmi, senmi" qabilidagi mushumtuzo'rliklar? Qachon insof kiradi bu bosqinchi

Davomi 2-beta

Davomi 3-beta

PREZIDENT DARAXT EKMOQDA...

Abdusaid KO'CHIMOV,
senator

Boshlanishi 1-betda

Prezident daraxt ekmoqda...

Bektemir tumanidagi halqa yo'li yoqasida 100 gektarli yangi boqqa asos solinmoqda. Boqqa ikki yilda 100 ming tupdan ziyod daraxt va buta ko'chati o'tqaziladi. Ularni parvarishlash va sug'orish uchun 3 ta sun'iy havza va 12 ta quduq barpo etiladi. Mamlakatimizda esa faqat shu yilning kuzida 80 million tup daraxt va buta ko'chati ekish rejalashtirilgan. Umuman, oxirgi uch yilda mamlakatimiz bo'yicha 646 million tup ko'chat va buta ekildi. Orolbo'yidagi yashil qoplamada hududi 2 million gektardan oshdi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz Oliy Majlis yig'ilishida aytganidek, qo'shni mamlakatlar bilan birgalikda mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishildi. Poytaxtimizda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish universiteti ochildi. O'zbekiston BMT tomonidan bu borada qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiya tashabbuskori bo'ldi. Ayni vaqtda "yashil" energetika iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston 2023-yilda iqlim o'zgarishlariga moslashuv jarayonini moliyalash yo'nalishida MDHda birinchilardan bo'lib tarixiy qadam tashladi hamda 331 million dollarlik "yashil" suveren xalqaro obligatsiyalarni London fond birjasida joylashtirdi.

Ekologik muammolarning mintaqaviy va transchegaraviy xususiyatini inobatga olgan holda, joriy yilda O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan ilgari surilgan "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" to'g'risida BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Unda Orol mintaqasini tiklashga qaratilgan tashabbuslarga alohida e'tibor berilib, yashil o'rmonlar barpo qilish va mahalliy aholi turmush darajasini oshirish kabi keng ko'lamli dasturlar taqdim etildi. Mazkur loyihalar yurtimizning ekologik va ijtimoiy o'zgarishlarga sodiqligining o'ziga xos ifodasidir.

Endi mazkur yo'nalishlar bo'yicha hukumat tomonidan alohida dasturlar ishlab chiqiladi. Unda "yashil" texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, muammosini hal qilish, eng muhimi,



“

Birinchi niholning ildizlari atrofni belkurak bilan shibbalab, ikkinchi ko'chatga mehr qo'rini to'ka boshladi...

Bu shunchaki yerga bir tup ko'chat o'tqazish, shunchaki dam olish kumidagi yumushlarning biri emas. Bu — yetti yoshdan yetmishgacha bo'lgan barcha fuqaroga da'vat. Talato'p dunyoning ko'ziga kul sochayotgan kimsalarning qilmishiga Prezident javobi. Tabiat xoinlarining boshiga urilgan gavron... va har bir aqli raso insonga saboq, yoshlarga ibrat, qariyalarga duo, mo'yalam sohiblari-yu shoirlarga ilhom bulog'i bu.

aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etadi, albatta.

Lekin o'zimiz-chi? O'zimiz yurakdan his qilyapmizmi buni?

Axir biz — odamlar ona tabiatini ozmuncha xo'rldikmi, taladiki, azobladikmi, aldadikmi? Nega asrlar mobaynida bir tomchi suvga zor bo'lgan arab sahrolari sel qahriga duchor bo'lmoqda, nega shimol dalalari, o'rmon kentlari toshqinlar tagida ko'milib qolyapti? Dunyo bino bo'lganida buyon chanqoqlik nimaligini bilgan sersuv manzillar Afrika sahrolaridek qaqrab

boryapti, daryolar o'rnida cho'llar, cho'llar o'rnida ko'llar paydo bo'lyapti? Chunki biz yetti qavat yer tagi-yu yetti qavat osmon ustigacha nima ko'rinsa, taladik, talayapmiz. Hatto ona zaminni pilladek o'rab, turli balo-qazolardan asrab turuvchi ozon qatlamigacha ayamadik — teshdik: mix urib teshdik, miltiq otib teshdik, snaryad otib teshdik, teshyapmiz. Bu ketishda bulut bulutligini, osmon osmonligini, yulduz yulduzligini unutib qo'ymaydimi? Bunday talon-

Prezident javobi. Tabiat xoinlarining boshiga urilgan gavron... va har bir aqli raso insonga saboq, yoshlarga ibrat, qariyalarga duo, mo'yalam sohiblari-yu shoirlarga ilhom bulog'i bu.

Davlat rahbarining qalbida orzu-armonlarni hali-hanuz hammamiz ham tushunib yetganimizcha yo'q. Tushunib yetganimizda har yil bahor-u kuzda ekan ming-ming tup ko'chatimiz saratonda quvraq, qorda muzlab qolmagan bo'lar edi.

Qayrag'ochning foydasi-yu yantoqning shifobaxshligini anglashadimi? Ularga qaldirg'ochlar nima uchun ayvonlarga in qurishini aytganmizmi? Zurrivotlarimizga burgutlarning lochinlardan, qarq'alarining quzg'unlardan, chiyabo'rilarning bo'rilardan farqi haqida gapirganmizmi? Bir tup daraxt, bir tup rayhon, bir siqim yalpiz, bir tutam ismaloq odamzodga qancha foyda keltirishi haqida-chi? Daraxtning bitta shoxini, na'matak yoki do'lananing bitta novdasini

ko'ylarda kun-u tun jildirab oqib yotgan vodoprovod jo'mragini burab qo'yish nega esimizga kelmayapti? Nega tonnalab zaharli gaz chiqarayotgan yirik korxonalarni tartibga chaqirmayapmiz? Nega ostonamizdagi ariqlarni xazon bosib yotibdi? Kecha ekan niholni echki g'ajiyotganini ko'rib turib, nega haydamaymiz? Farzand kimdan ibrat olsin? Qush uyusida ko'rganini qilmaydimi? Qachon saboq chiqaramiz o'zimiz — kattalar?

Qachon xulosa qilamiz, qachon rost gapirishni o'rganamiz?

Prezident daraxt ekmoqda...

Nihol tubiga suv quyimoqda. Bu nihollar o'sib, azamat daraxtlarga, daraxtlar katta bog'larga aylanadi hali. Bog'lar qushlar chug'uriga to'ladi, bulbullar mast bo'lib sayraydi. Asalarilar daraxtlarning gullariga qo'nadi, shamollar o'padi, quyosh nur to'kadi. Qadim Turon, ulug' Turkiston — yangi O'zbekiston bog'larida qariyalari yonboshlab dam oladi, bolalar qiyqirib o'ynaydi, Xudo xohlarsa. Har nafas, har daqiqani bekor ketkazmay, tabiatni onajon, deya bag'rimizga bosib, yelkamizda opichlab, qarog'imizda avaylaydigan zamon keldi. Onajonimizning oydek porloq, quyoshdek mehrlil ekanini bilmoq va ardoqlamoq zamoni keldi.

Kechir bizni, ona tabiat,

Sochig yulib, zo'rldak seni.

Oh ursang ham qilmadik shafqat,

Orol misol xo'rldak seni.

Sen shod bo'lsang, ko'ngling to'q bo'lsa,

Biz ham shodmiz, bizlar ham to'qmiz.

Ko'zing achchiq yoshlarga to'lsa,

Biz ham g'arib, bizlar ham yo'qmiz.

Boshimizni urib poyingga,

Ona, sendan uz so'raymiz.

Endi esa hamma joyingni,

Chechaklarga, gulga o'raymiz.

Ko'klatay deb ulug' mulkingni,

Yo'zga chiqdi qari, yoshimiz.

Bu qudratli ulug' to'lginni,

Boshlab berdi davlat boshimiz.

Dala dashtu ko'cha ko'yingni,

Burkagymiz bog'u to'stonga.

Havas qilgay bu jabhada ham,

Ahli dunyo O'zbekistonga.

Prezident daraxt ekmoqda...



tarojlarning oldi olinmasa, jilovlanmasa, qiyomat-qoyim bo'lmaydimi? Bir-biridan dahshatli fojialarni zamin ahli bilib turibdi, esi borlar faryod uryapti, "Bas qiling!" deya hayqiryapti. Zo'raonlar esa kardek, ko'rdek miq etmayotir. Kim o'zi ular? Nahotki, bolasi, ota-onasi, qarindosh-urug'i, millati va vatanining taqdirini o'ylamasam? Nega yoqasidan olib, bumini ajriqqa ishqamayapti dunyoga egamenlik da'vosida yurgan saltanatlarining sultonlari? Nega?!

O'zbekiston Prezidenti daraxt ekmoqda...


Birinchi niholning ildizlari atrofni belkurak bilan shibbalab, ikkinchi ko'chatga mehr qo'rini to'ka boshladi...

Bu shunchaki yerga bir tup ko'chat o'tqazish, shunchaki dam olish kumidagi yumushlarning biri emas. Bu — yetti yoshdan yetmishgacha bo'lgan barcha fuqaroga da'vat. Talato'p dunyoning ko'ziga kul sochayotgan kimsalarning qilmishiga

Axir bu yil mana buncha million ko'chat ekkid qabilidagi yolg'on ma'lumotlar bilan o'ziniyam, o'zgalarniyam aldayotgan amaldorlar yo'qmi oramizda? So'nggi 10-15 yilda ekilgan daraxtu butalar haqidagi "hisobot"lar rost bo'lganida edi, O'zbekiston o'rmonga aylanib ketgan bo'lardi. Aldadik. Oqibat nima bo'ldi — xalqning peshona teri bilan topilgan millionlar somondek sovurildi, mehnatimiz suvda oqdi, qumga cho'kdi. Nima naf ko'rldik? Prezident bunday xunuk xatlar takrorlanmasligi, saboq chiqarish, qabllarda ona tabiatga beadoq mehur-muhabbat uyg'otish uchun ham o'zi bosh bo'lib daraxt ekmoqda...

Daraxt ekmoqda... Biz farzandlarimizga, nabiralarmizga tabiat nima ekanini tushuntira oloyapmizmi? Bolalarimiz daraxtlarni daraxtlardan, gullarni gullardan, chechaklarni chechaklardan farqlay oladimi? Ko'katlarining nomi-yu maysalarning xususiyatini bilishadimi?

bevaqt sindirish qanchalar zararli ekanini-chi? Daryo-yu anhorlar kalla tashlab, maza qilib cho'milishgana emas, minglab insonlarning, gul-u g'unchalarning, qurt-u qumursqa, bog'u rog'larning joni, qoni ekanini tushuntirganmizmi? Bolalarimiz his qiladilarmi, bulut nimaligi, oy nimaligi, qiru adir va yer-u osmon nimaligini? To'fonlar, toshqinlar qayoqdan paydo bo'lishiyu nega tabiiy ofatlar ko'payib ketayotgani sabablarini haqida ularning tasavvuri bormi? Yer yuzidagi hamma yaratq inson uchun, yashash uchun kerakligi, ularni tanish, bilish, ko'z qarochig'idek asrab-avaylash uchun o'qish, o'rganish zarurligini bilishadimi? O'zimiz-chi? Bilsak, nega ariqlar, daryo-yu soylarning suvi bulg'anishiga tomoshabin bo'lib qarab turibmiz, yo'l bo'ylari, mahalla-



“YANGI O'ZBEKISTONDA DINIY BAG'RIKENGLIK” MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA XORIJIIY MUTAXASSISLAR NIGOHIDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi, xalqparvar va millatparvar siyosati, shuningdek, mintaqa miqyosida faol tashqi siyosat olib borayotgani, qo'shni davlatlar bilan har tomonlama, o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirayotgani, egulik va tinchlik-osoyishtalik omili bo'lgan diniy bag'rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga imkon bermoqda.

Yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ta'lim, ilm-fan, ma'naviyat va ma'rif, millatlar o'rtasidagi do'stlik va bag'rikenglik tamoyillari o'zining yangi tarixiy sahifalarini ochdi. Yaqin qo'shni davlatlar bilan oliy va yuqori darajadagi aloqalarimiz sezilarli darajada faollashdi.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida hamda BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi sessiyasida nutq so'zlab, muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Prezidentimizning muhim taklifi asosida 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Ma'rif va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur rezolyutsiyani Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi 50 dan ortiq mamlakatlar yakdil qo'llab-quvvatladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2023-yil 19-sentabrdagi 78-sessiyasida ilgari surgan tashabbuslari asosida joriy yil 15-oktabr kunlari Toshkent va Xiva shaharlarida "Islom — tinchlik va egulik dini" mavzusida xalqaro konferensiya yuqori saviyada o'tkazildi.

Unda dunyoning 22 ta mamlakatidan 70 dan ortiq xorijiy mehmonlar — ulamolalar, muftiylar, islomshunos olimlar, xalqaro tashkilotlarning vakillari hamda yurtimizda faoliyat yuritayotgan diplomatik korpus rahbarlari ishtirok etdi.

Ushbu tadbir yakuni bo'yicha musulmon mamlakatlarining olim va mutaxassislari ishtirokida ekstremizm, radikalizm va terrorizmga qarshi kurash samaradorligini yanada oshirish, ilmiy raddiyalar berish

metodologiyasini takomillashtirish masalalari bo'yicha Xiva deklaratsiyasi qabul qilindi.

Joriy yilning 16-noyabr kuni esa poytaxtimizda "Bag'rikenglik haftaligi" doirasida Din ishlari qo'mitasi, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi hamda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi hamkorligida "Yangi O'zbekistonda diniy bag'rikenglik" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Undan ko'zlangan maqsad O'zbekistonda tinchlik, osoyishtalik omillaridan biri bo'lgan diniy bag'rikenglik, dinlararo totuvlik va konfessiyalararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash borasidagi ishlarni o'rganish, istiqboldagi vazifalarni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va shu yo'nalishda o'z yechimini kutayotgan masalalarni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Xalqaro anjumanda AQSH, Buyuk Britaniya, Koreya, Turkiya, Malayziya, Portugaliya, Armaniston, Rossiya, Tojikiston, Qozog'iston kabi davlatlardan mutaxassislar, UNESCOning O'zbekistondagi vakolatxonasi vakillari, dinshunos ekspertlar, islomshunoslar, milliy madaniy markazlar, turli diniy konfessiya vakillari, shuningdek, jamoat tashkilotlari, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professor-o'qituvchilari qatnashdi.

Anjumanning xorijiy ishtirokchilari bugungi tahlikali zamonda O'zbekistondagi dinlararo va millatlararo totuvlik hamda diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlar xorijiy davlatlar uchun o'rnak bo'layotgani, bu islohotlar va tashabbuslar boshida O'zbekiston Prezidenti turganini yuqori baholadi. Quyida diniy konfessiya rahbarlari va dinshunos mutaxassislarining anjumani haqidagi taassurotlarini keltiramiz:

Mustafa DEMIRJI,
Turkiyaning Saljuq universiteti
Saljuq tadqiqotlari instituti
mudiri, professor:

— Mazkur konferensiya O'zbekistondagi 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta konfessiya vakillarini bir maqsad yo'lida birlashtirdi deb aytish mumkin.

Ushbu nufuzli anjuman orqali turli millat vakillari Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik borasida olib borilayotgan islohotlardan mamnun ekanliklarini izhor qilmoqda.

Tarixan ushbu makon Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan, turli millat va xalqlar bir yerda jamlangan yurt hisoblanadi. Bu esa o'lkaniq sivilizatsiyalar tutashgan manzilga aylantirgan. Bunday yurt dunyoning boshqa joyida topilmaydi.

Sergey KRETOV,
Novoapostol cherkovi
Markaziy Osiyo okrugi rahbari:

— Hozirda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta konfessiya vakillari istiqomat qiladigan multikonfessional O'zbekiston jamiyatida bag'rikenglikni targ'ib qilish yurt rivojining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Biz O'zbekistonda dinlararo bag'rikenglikni ta'minlashning o'ziga xos modeli shakllanganing guvohi bo'ldik. Uning o'ziga xos jihati shundaki, har bir din vakiliga teng huquq va erkinlik berilgan va emir-erkin ibodatlarini amalga oshirishga sharoit yaratilganidir.

Shuni aytish muhimki, keyingi yillarda yangi O'zbekistonda dinlararo muloqot sohasida ko'plab ijobiy islohotlar amalga oshirilayotganining guvohi bo'lmoqdamiz va bu bizni mamnun qiladi. Bugungi o'tkazilayotgan konferensiya ham fikrimizning yaqqol misoli bo'ladi.

Yepiskop Xose Luis Mumbiyela SERRA,
Markaziy Osiyo katolik yepiskoplari
konferensiyasi raisi, Qozog'iston:

— O'zbekistonga avval ham bir necha bor kelganman. Bu yerda turli din va millat

vakillarining hamjihatlikda o'zaro tinchtotuv hayot kechirayotgani, umuman, diniy bag'rikenglikning yuksak madaniyati shakllanganini meni g'oyat hayratlantiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi bugun mamlakatimizning tez sur'atlar bilan rivojlanib, xalqaro miqyosidagi nufuzi tobora yuksalib borishida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhiti muhim rol o'ynamoqda.

Bugungi turli nizolar kuzatilayotgan vaziyatda turli millat, din vakillarini bir joyga jamlab, tinchlik, farovonlikni ko'zda tutgan musharak maqsadlar ilgari surilayotgani juda katta jasorat va dunyo hamjamiyatiga namunadir.

Mitropolit VIKENTIIY,
Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasi rahbari:

— Prezident Shavkat Mirziyoyev barcha odamlar tinchlik va hamjihatlikda yashashlarini ta'minlashini qo'llab-quvvatlab, targ'ib qilib kelmoqda. Bu esa diniy bag'rikenglikning muvaffaqiyatli kalitidir.

Keyingi yillarda O'zbekiston xalqaro hamjamiyatga tobora ochilib bermoqda. Turli millatlar o'rtasida egulik, tinchlik va totuvlik, bag'rikenglik va do'stlik siyosatini tarannum etayotgan mamlakat sifatida dunyoda o'tinamoqda. Ushbu konferensiya esa diniy bag'rikenglikning o'zbekona modeli sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Prezidentining tinchlik va hamjihatlik tashabbusini barchamiz qo'llab-quvvatlashimiz kerak. Shunday ekan, bugungi bayram bilan barchani tabriklayman. Bunday quvonchli kunlar har doim hamrohimiz bo'lsin.

Vladimir PROVOROV,
Rossiya Yevangel-Lyuteran cherkovi
arxiyepiskopi:

— O'ylaymanki, mazkur konferensiya O'zbekistondagi turli millat va elat vakillarining tinchtotuv, umumjamiyat rivoji yo'lidagi sa'y-harakatlariga hamohangdir.

O'zbekiston Prezidentining millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik tamoyillariga asoslangan siyosati mamlakatdagi turli millat

vakillarini bir maqsad sari birlashtirmoqda. Bu yangi O'zbekistonning insonparvarlik islohotlaridan biri sifatida xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

Abd Rahman Mohd ROSMI,
Malayziya Islom ilmlari
universiteti professori:

— "Yangi O'zbekistonda diniy bag'rikenglik" mavzusidagi konferensiya sabab O'zbekistonda bo'lganidan juda ham mamnunman. Fursatdan foydalanib, ushbu nufuzli anjuman tashkilotchisi va tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyilariga minnatdorlik bildirib qolaman. Bu kabi tadbirlarning bardavom bo'layotgani juda quvonarlidir. Zero, yaxshi bilimimizki, islom dini ta'limgotga ko'ra, Alloh taolo insonlarni turli xalq va millatlarga bo'lib yaratgan va ularning asosiy maqsadi Yer yuzida hamjihatlik va hamkorlikda yashashdan iborat.

Biroq bugun Yer yuzining ayrim hududlarida sodir bo'layotgan nizolar, to'qnashuvlar tinchlik-totuvlikning qadriini yanada oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bugungi konferensiya dolzarab ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, yurtingizdagi diniy konfessiya vakillarining faoliyatini o'rganish, tahlil etish, O'zbekistonning bag'rikenglik siyosatini jahon hamjamiyatiga namuna sifatida ko'rsatish anjuman qatnashchilarining muhim maqsadi bo'lishi kerak. O'z yurtimizga qaytganimizda ham konferensiyada ko'tarilgan insonparvarlik, bag'rikenglik g'oyalarini yetkazishni ko'zda tutganmiz.

Sanjiv DJXA,
MDH Hind forumi raisi, Rossiya
Hind Kengashi raisi:

— Bugungi tashkil etilayotgan "Yangi O'zbekistonda diniy bag'rikenglik" konferensiyasini o'z yo'nalishiga ko'ra, dunyoda noyob hodisa deb hisoblayman.

Men bir necha din va millat vakillari yashaydigan davlatlarni bilaman, lekin bugungidek davlat rahbari darajasida

e'tibor beriladigan birorta mamlakatni bilmayman.

O'zim shaxsan Krishna jamiyati vakili hisoblanaman. Qadimgi sanskrit tilida yozilgan diniy manbalarda "Bu dunyo unda yashayotgan din va millat vakillaridan qat'i nazar, katta oiladir". Men aynan O'zbekistonda bir necha millat va elatlarining ahil va inoq o'ladek yashayotganiga guvoh bo'ldim. Bunday nufuzli anjumanda ishtirok etayotganimdan g'oyat mamnunman.

Faride KAMALOVA,
Ahmad Yassaviy nomidagi Xalqaro
qozoq-turk universiteti kafedra
mudiri:

— Insoniy qadriyatlariga asoslangan dinlararo muloqotning asosiy poydevori bag'rikenglikdir. Bag'rikenglik turli fikrlar, e'tiqodlar va madaniyatlarini hurmat qilish sifatida ta'riflanadi hamda ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatlarda tinchtotuv yashashning zarur sharti sifatida ko'riladi.

Modomiki, shunday ekan, har bir inson, butun jamiyat o'zaro munosabatlarni xalqlarning turli-tuman urf-odatlari, madaniyati va qadriyatlarini tan olgan holda bag'rikenglik asosiga qurishi zarur. Zero, tinchtotuvlik, bag'rikenglik taraqqiyot garovidir.

Xorijiy ekspert va mutaxassislarining fikrlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida mazkur jabhada "o'zbek modeli" o'ziga xos namuna o'laroq shakllanayotgani jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda turli dinlarga e'tiqod qiluvchi kishilarning bir makonda ezgu niyatlar yo'lida o'zaro hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, mehnat qilishi bag'rikenglikning eng yorqin namunasidir. Dunyodagi vaziyat keskin va murakkab bo'lib borayotgan bugungi kunda yurtimizning tinchligi va ravnaqini ta'minlash, diniy bag'rikenglikni qaror toptirish har qachongidan ham muhimdir.



Inson qadri uchun

YANGI O'ZBEKISTONDA YANGILANAYOTGAN QORAQALPOG'ISTON



Qurbanbay BAYNIYAZOV,
“Erkin Qaraqalpaqstan” —
“Вести Каракалпақстана”
gazetalarini bosh muharriri v.b.

Boshlanishi 1-betda

Azaldan tabiatga mehr bergan, uning qadriga yetishga intilgan xalqimiz. Shu bois, tabiat so'zining oldiga doimo “ona” so'zini qo'shib qo'llaymiz. Xalqimiz atrofida, olamda mavjud narsalarni asrab-avaylashga intiladi. Keyingi yilga bunday nom berilishi mana shunday qadriyatlarimizga mos. Davlatimiz rahbari ilgari surgan ushbu fikrlar ona vatanga beqiyos muhabbatini his qilish, mavjud imkoniyatlarning qadriga yetish, uni kelajak avlodlarga yetkazishda fidoyi bo'lishga chorlaydi. Demak, ona tabiatni asrab-avaylashga, himoya qilishga qaratilgan ishlar, “yashil iqtisodiyot”ga o'tish borasidagi sa'y-harakatlarimiz yangi bosqichga ko'tariladi.

Berdag nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori Biybisoira Yerejepovaning so'zlariga ko'ra, “yashil” iqtisodiyot deganda, insoniyat uchun zarur resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani butun holda asrab qolib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy xizmatning alohida yo'nalishi tushuniladi.

“Oddiy misol, shu yil oktabr oyining birinchi o'n kunligida Taxiotosh issiqlik elektr stansiyasida 180 kilovatt quvvatga ega navbatdagi quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirilib, natijada 420 ming kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladigan bo'ldi. Buning natijasida yiliga 45 ming kub metr tabiiy gazning tejashiga erishildi. Mana shuning o'zi kichkinagina “yashil iqtisodiyot”, deydi mutaxassis.



Qoraqalpoq'istonda 2030-yilgacha 11 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri investitsiya hisobiga jami 10,3 gigavatt quvvatga ega 10 ta yirik shamol elektrostansiyasi qurilishi rejalashtirilgan. Bu loyihalar to'liq ishga tushirilgach, yiliga 35 milliard kilovatt-soat energiya olinadi. Shu yil 19-avgust kuni Prezidentimizning Qoraqalpoq'istonga tashrfi davomida ushbu loyihalarning bir nechtasiga start berildi.

Prezidentimiz xalqaro minbarlarda Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik halokatni bartaraf etishga jahon hamjamiyati diqqat-e'tiborini qaratib kelmoqda. Orol dengizining qurigan tubida o'rmonzorlar yaratish ko'lami kengaymoqda. Bu xayrli va savobli ishga nafaqat qoraqalpoq'istonliklar, balki barcha viloyatlardan texnika va qo'l kuchi bilan yordam ko'rsatilmog'da. Bugungi kunda 2 million gektardan ortiq maydonga ekilgan o'simliklar ko'karib, dengiz tubini yashil qoplamaga aylantirmog'da.

Bu yo'nalishdagi yana bir muhim jihat. Ekotizimni yaxshilash, sho'rlangan, suvsiz muhitda yangi nav va urug'larni yaratish uchun Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi tashkil etildi. Yaqinda qishloq xo'jaligini iqlimga moslashtirish dasturi tasdiqlandi. Unga ko'ra, Orolbo'yida iqlim o'zgarishi oqibatini yumshatishga 80 million dollar ajratiladi. Ushbu mablag'lar 100 ming gektar yaylovni degradatsiyadan chiqarish, tuproq-iqlimga mos kunjut va qovun navlarini yetishtirish, chorva ozuqa bazasini mustahkamlash va kadrlar tayyorlashga sarflanadi.

Shuningdek, bugungi kunda Nukus — Taxiotosh trassasi yoqasida olib borilayotgan obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari ko'rgan ko'zni quvontirib, ko'ngilni ko'taradi.

O'tgan haftada ijodiy jamoamiz Taxtako'pir tumanida gazeta mushitariylari bilan uchrashuv o'tkazish uchun yo'lga chiqqanda, mahrom bo'lgan nuroniy akamiz yo'l bo'yilarida mehnat qilayotgan aholining ibratli ishlaridan ko'ngli to'lib:

— Barakalla, og'zibirchiligingizga ko'z tegmasin, mehnatingizning natijasini, rohatini ko'ring. Bahorda ekilgan ko'chatlar tutib, o'sib rivojlanish fazasiga kiribdi. Nasib qilsa, bu hududlarda katta o'rmonlar bo'ladi. Meni aytdi dersen, — dedi.

Bunday ham savob, ham xayrli ishni respublikamizning nafaqat shimoliy, balki janubiy, g'arbiy hududlarida, har bir mahalla, ko'cha, hattoki oilalarda kuzatishimiz mumkin.

Bu yil kuz mavsumida “Yashil makon” loyihasi doirasida respublika bo'yicha jami 5 million 600 ming dona manzarali va mevali ko'chat ekilishi ko'zda tutilgan. Hozir bu jarayonni uzog'i bilan 10 kun ichida yakunlash bo'yicha ishlar uyushqoqlik bilan olib borilmoqda. Shuningdek, nihollar tutib ketishi, o'sib rivojlanishi bo'yicha ham

tegishli tashkilotlarga, mutaxassislarga alohida mas'uliyat yuklangan.

Darhaqiqat, Qoraqalpoq'istonda eng olis, chekka ovul, hududlarning ham infratuzilmasi yaxshilanib, aholining ijtimoiy turmush darajasi ortmoqda. Xususan, yurtimizning shimoliy darvozasi hisoblangan Taxtako'pir, Borshitov yonbag'ri, Qarateren ko'li sohili hududlarida infratuzilmani yanada yaxshilash, turizm salohiyatini oshirish va aholi bandligini ta'minlash maqsadida loyiha qiymati 30 milliard so'mdan ortiq ekoturizm kompleksi foydalanishga topshirildi. Uning ochilish marosimida bir otaxonning “Yangi O'zbekistonda yangilanayotgan Qoraqalpoq'iston”, deya hayajonlanib aytgan gapi hech vodimdan ko'tarilmaydi.

Qoraqalpoq'istonda turizm rivojlanmog'da. Masalan, 1 million 300 ming sayoh keldi. Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqaro Nukus — Olmaota, Nukus — Istanbul, ichki Nukus — Mo'ynoq aviareyslari, Nukus — Mang'istov temir yo'l qatnovi ochilib, yo'lovchilar bu yo'nalish xizmatlaridan foydalanmog'da.

Amudaryo ustida yangi temir-beton konstruksiyali zamonaviy avtomobil shovot temir yo'l ko'prigi, shuningdek, Hamda



hududlarda ijtimoiy obyektlar ko'payib, aholiga qulaylik yaratildi.

Shuningdek, Qo'ng'iro't — Beyneu avtomobil yo'lining yangidan qurilgan 240 kilometrli qismi foydalanishga topshirildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, yangi yo'l atrofida 200 dan ortiq savdo-xizmat ko'rsatish obyekti

Beruniy va Qorao'zak tumanlarida Saudiya Arabistoni kompaniyasi bilan hamkorlikda qiymati 250 million dollarlik 200 megavatt quvvatli shamol elektrostansiyalari qurilishi rejalashtirilmoqda. Kelgusida ularda yiliga 4 milliard 200 million kilovatt-soat yoki 1 million 750 ming xonadonning 1 yillik



bekatidan Qorao'zak bekatigacha bo'lgan 85 kilometr uzunlikdagi temir yo'l liniyasi qurib bitkazilishi Qoraqalpoq'istonda transport infratuzilmasini yaxshilash yo'lida juda muhim qadam bo'ldi. Ushbu ko'priklarga Xitoy va Qozog'istondan yuk tashish masofasini 240 kilometr, vaqtini esa 6 soat qisqartiradi.

Shu paytgacha Amudaryo tumanini aqli avtomobilida Nukus tomon Urganch va Beruniy orqali yurishga majbur edi. Buning uchun qo'shimcha 180 kilometr yo'l yurishga to'g'ri keldi. Poyezdda esa Xorazmning sharq tomonidagi Hazorasp ko'prigidan o'tib kelinardi. Yangi ko'priklarni tufayli bu qiyinchiliklar barham topdi. Xalqning uzog'i yaqin bo'ldi.

Mazkur ko'priklarning uzunligi 423 metr. U bilan birga Shovot — Qorao'zak bekatlarini bog'laydigan 85 kilometrli temir yo'l hamda 3 ta vokzal ham barpo etildi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bu ko'priklarni, avvalo, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi mustahkam ishonch va do'stlik ko'prigidir. Bu yo'l jahonga ochilayotgan yangi O'zbekiston, yangi Qoraqalpoq'istonning taraqqiyot va farovonlik yo'lidir. Mana shu azim daryoning ikki sohilida shunday yorug' kunlarni orzu qilib yashab kelayotgan minglab yurtdoshlarimizning umidlari ro'yobga chiqdi.

Qoraqalpoq'istonning shimoliy tumanlariga viloyatlar birlashtirilishi natijasida hududlar infratuzilmasi yaxshilanib, aholining turmush farovonligi yanada oshdi. Masalan, Xorazm viloyati Shumanay tumanidagi 250 ta uy-joyning tom qismi shiferlab berildi. Nukus tumaniga birlashtirilgan Samarqand viloyati esa tumanida yangi bozor majmuasi, masjid, kutubxona hamda fuqarolar yig'ini ma'muriy binosini qurib, foydalanishga topshirdi. Natijada ushbu

hamda sanoat korxonasi quriladi. Shuning hisobidan kelgusida 5 mingga yaqin ish o'rni yaratiladi. Natijada Qoraqalpoq'istonda tuzatish va boshqa xizmatlar hajmi yiliga 200 million dollar, davlatimiz eksport ko'rsatkichi esa 300 million dollar ortishi uchun mustahkam asos yaratiladi.

Oxirgi yetti yilda Qoraqalpoq'iston Respublikasida 17 trillion 800 milliard so'mlik 6784 ta loyiha amalga oshirildi. Buning natijasida 56 mingta ish o'rni yaratildi. Shu davrda 2 milliard 815 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Bu yil respublikada umumiy qiymati 874 million dollarlik 470 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Bu izchil davom ettirilib, Qoraqalpoq'istonda xorijiy investor va mahalliy tadbirkorlar tomonidan umumiy qiymati 9,5 milliard dollarlik 124 ta loyiha shakllantirildi. Loyihalarga Xitoy, Saudiya Arabistoni, Germaniya, Ispaniya kabi qator mamlakatlar kompaniyalari investitsiya kiritmoqda. Ular energetika, issiqlik ta'minoti, tog'-kon va kimyo sanoati, qurilish materiallari, xizmat ko'rsatish va boshqa tarmoqlarni qamrab olgan. Masalan, Saudiya Arabistoni bilan hamkorlikda Nukus shahrida markazlashgan issiqlik ta'minoti tizimini yaxshilash, Ispaniya investitsiyasi ishtirokida Qorao'zak tumanida quyosh va shamol elektr stansiyalari qurish, germaniyalik investorlar tomonidan Nukus tumanida misni qayta ishlash va kabellar ishlab chiqarish loyihalari rejalashtirilgan. Mazkur 124 ta loyiha natijasida 20 mingdan ortiq aholi ish bilan ta'minlanadi.

Xususan, Xitoy kompaniyasi tomonidan Qo'ng'iro't tumanida qiymati 1 milliard 200 million dollarlik 1 gigavatt quvvatli,

iste'moliga teng “yashil” energiya ishlab chiqariladi. Natijada 1,3 milliard metr kub tabiiy gaz tejaladi.

Prezidentimiz 2021-yil Qoraqalpoq'istonga tashrfi chog'ida IT park uchun yangi bino qurish bo'yicha ko'rsatma bergan edi. Shunga muvofiq, Nukus shahri markazida 17 qavatli zamonaviy bino bunyod etildi. Bu yerda IT ta'lim va kovorking markazlari, ofislar, konferensiya zali va xizmat xonalari mavjud. Shuningdek, binoga IT park rezidentlari, sohada faoliyat olib borayotgan investorlar, chet ellik a'zorsing korxonalar joylashtiriladi. Ilgari ikki qavatli binoda ochilgan IT park bugun muhtasham majmuaga ko'chgani rejalar ulkanligidan darak beradi.

Shuningdek, Nukus shahrida Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Qoraqalpoq'iston filialining yangi binosi foydalanishga topshirildi.

Qoraqalpoq'istonlik yoshlarning bilim olishi uchun bu yil ham qo'shimcha 10 ming kvota ajratilishi natijasida qizi Buxoro tibbiyot institutida o'qishga kirgan qo'shimchi Biybinaz har kuni davlatimiz rahbaridan minnatdor, aytar rahmati cheksiz. Bunday minnatdorlik tuyg'ularini har bir qoraqalpoq'istonlikdan eshitish mumkin. Chunki Prezidentimizning Qoraqalpoq'istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush farovonligini yaxshilash, roziligiga erishish borasida o'n beshdan ortiq farmon va qarori qabul qilindi. Natijada qanchadan qancha ijtimoiy obyektlar

qurildi va qayta ta'mirlandi. Ichimlik suv, elektr energiyasi, tabiiy gaz yetkazilib, ko'chalarga asfalt yotqizilmog'da. Avtomobil, suv yo'llari qayta ta'mirlanmog'da.

Hududda ishlabarmonik infratuzilmasi ham jadal rivojlanmog'da. Buning uchun 44,5 trillion so'm mablag' yo'naltirilgan. Natijada oxirgi yillarda 25 mingdan ortiq yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etildi. Birgina o'tgan yilda 345 million dollarlik 1400 dan ortiq loyiha amalga oshirilib, 10 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratildi.

Qoraqalpoq'istonda chet el kapitali bilan tashkil etilgan korxonalar soni ham ko'payib bormog'da. 2017-yilda 73 ta xorijiy va qo'shma korxonalar bo'lgan, bugungi kunda esa ularning soni 175 taga yetdi. Hozirda hudud iqtisodiyotiga turki beruvchi qariyb 9,5 milliard dollarlik 120 dan ortiq yangi yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar 2025-2028-yillarda bosqichma-bosqich ishga tushiriladi. Natijada 20 mingdan ortiq ish o'rni, 12 trillion so'mlik ishlab chiqarish quvvati va budjetga 500 milliard so'm qo'shimcha tushum yaratiladi.

Ta'kidlash joizki, 2030-yilga qadar Qoraqalpoq'istonda 10 ta yirik shamol elektr stansiyasi qurilishi rejalashtirilgan. Bu loyihalar to'liq ishga tushgach, energiya uzatishda barqarorlikni ta'minlash uchun Qo'ng'iro't, Beruniy va Qorao'zak tumanlarida jami 400 megavattli 3 ta elektr energiyasini saqlash tizimi barpo etiladi.

Qoraqalpoq xalqining ko'nglidan joy olgan yana bir quvonchli voqea — Prezidentimizning tashabbusi bilan Ajiniyoz Qo'shiboy o'g'lining 200 yilligi UNESCO doirasida nishonlanadigan xalqaro yubileylar safiga kiritilishi, yubileyini o'tkazish bo'yicha maxsus qaror qabul qilinishi bo'ldi. Qoror asosida shoir qabrining atrofi obodonlashtirildi, kitoblari ozarbayjon, turk tillariga tarjima qilindi.

Ginnesning rekordlar kitobiga kirgan Nukusdagi “Oqqush” majmuasidagi qora uйда xalqaro konferensiya uksak sayivada o'tkazilib, qator turkiyzabon davlatlardan olim va yozuvchi-shoirlar ishtirok etdi. Bu tabdirning davomi shu yil 19-noyabr kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida yuqori ko'tarinkilik bilan o'tdi. Bu o'zbek va qoraqalpoq xalqining ildizi bir, urf-odat, an'analar, adabiyoti, madaniyati, san'atiga ajratib baho berish mumkin emasligini isbotlaydi.

Shu yil 28-noyabr kuni qoraqalpoq milliy matbuoti asosi, Qoraqalpoq'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashi va Vazirlar Kengashi ta'sis chiqarilgan “Erkin Qaraqalpaqstan” gazetasi nashr qilina boshlaganiga 100 yil to'ladi. Bu sanani jamoamiz katta shijoat va xursandchilik bilan kutib olmoqda. Zero, yurtimizdagi bugungi o'zgarishlar, islohotlar jarayonini yoritib borish chanchalik mas'uliyat talab etsa, bu vazifani sidqidildan ado etishda shunchalik fidoyilik ham zarur. Bir asrni qarshilayotgan gazetaimiz jamoasida bu ikki jihat ham yetarli darajada.

Bir so'z bilan aytganda, Qoraqalpoq'iston Respublikasini har tomonlama rivojlantirish, hayotimiz farovonligini ta'minlash Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning alohida va doimiy e'tiborida bo'lib kelayotgani butun qoraqalpoq xalqiga hayotdan rozilik hissini bag'ishlamog'da. Eng muhimi, bu boradagi islohotlar, amaliy sa'y-harakatlar yildan yilga yanada takomillashib, go'zallashib boryapti.

Shu bois, ishonchimiz komilki, bundan keyin ham qoraqalpoq elida boshlangan bunday e'zgu, xayrli, xalqparvar ishlar bardavom bo'ladi. Yangi O'zbekistonda yangi Qoraqalpoq'iston eng go'zal, har tomonlama rivojlangan hudud sifatida bo'y ko'rsatib boraveradi.

USHBU MAQLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, aholi daromadini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos keluvchi ijtimoiy himoya tizimini joriy etish bugun yangi O'zbekistondagi xalqchil islohotlarning ustuvor maqsadidir. Bu zaqinda parlament palatalarida bo'lib o'tgan yig'ilishlarda alohida ta'kidlandi.



Salohiddin SAMADOV,
Kambag'allikni qisqartirish va bandlek vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasi ijrochi direktori

Xususan, davlatimiz rahbari Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 20-noyabr kuni bo'lib o'tgan majlisida Sayxunobod, Uychi, Zarbdor, G'ijduvon tajribalari asosida "Kambag'allikdan farovonlik sari" kompleks dasturi qabul qilingani va uning doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ijroiy samarasini berayotganini qayd etdi. Ushbu chora-tadbirlar tufayli ishli bo'layotgan, oilasiga baraka kirayotgan xonadonlar safi kengaymoqda. Ish va muqim daromadga ega odamlar nafaqat ro'zg'orini butlab o'lyapti, balki yangi faoliyat turlari bilan shug'ullanishga harakat qilyapti.

Kambag'allik faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy oqibatlar, ta'lim va sog'liqni saqlashdagi kamchiliklar, shafqatsizlik va cheklangan imkoniyatlar bilan bog'liq muammodir. Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush

darajasini yaxshilash bo'yicha muhim ijroiy natijalarga erishilayotgani ana shu jihatlari bilan ham ahamiyatli.

Mamlakatimizda 2024-yilning qolgan davrida 500 ming, 2025-yilda esa 1 million kishini kambag'allikdan chiqarish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatimizning eng muhim maqsadi sifatida belgilandi. Bunga erishish uchun barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlariga aniq vazifalar yuklatildi. Ko'riladigan chora-tadbirlar, birinchi navbatda, ijtimoiy himoya, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish, shuningdek, aholi uchun ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini yaxshilashga qaratiladi.

Davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari orasida kambag'al oilalarga yordam berish, turmush sharoitlarini yaxshilash, ish bilan ta'minlash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish kabi masalalar joy oladi. Shuningdek, o'zgarishlar ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya sohaslarida bo'ladi.

Har bir davlat organi va tashkiloti o'z sohasiga ko'ra aniq vazifalarni amalga oshirishga majbur bo'lib, ushbu jarayonni tartibga solish va jadallashtirish uchun qo'shimcha resurslar jalb qilinadi. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik, mamlakatning ichki imkoniyatlaridan foydalanish hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, dasturini amalga oshirish doirasida 5000 ta yangi ish o'rni yaratish belgilangan. Jamoat ishlari jamg'armasi 3000 ta, Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi 1000 ta, Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi 1000 ta yangi ish o'rni tashkil etishni rejalashtirgan. Dastur doirasida aholining ijtimoiy himoyasi kuchaytiriladi. Kasb-hunar tizimi takomillashtiriladi. Sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy xizmat va boshqa yo'nalishlarda infratuzilma yaxshilanadi. Xizmatlar sifati va shaffofligi oshadi. Aholining ijtimoiy holatini yaxshilash maqsadida moliyaviy yordam ko'rsatish, grantlar va subsidiyalarni berish ko'lami kengayadi. Tadbirkorlarga moliyaviy va konsalting xizmatlari ko'rsatish yaxshilanib, odamlarning huquqiy savodxonligi va iqtisodiy



KAMBAG'ALLIKDAN FAROVONLIK SARI

Odamlar turmush tarzi va qarashlarini o'zgartirishga qaratilgan dastur

bilimlari oshiriladi. Tadbirkorlik hamda innovatsiyalarga qiziqish shakllantiriladi. Ya'ni dastur ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim qismiga aylanadi. Bu bo'yicha mukammal strategiyani o'zida jamlaydi. Mazkur yo'nalishda respublika miqyosida komissiya tashkil etilishi hamda dastur ijrosi barcha davlat organlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilanganini uning doirasidagi ishlar qanchalik muhim va kechiktirib bo'lmaz ekanini anglatadi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati yaxshi rivojlangan mamlakat. Buning uchun bizda biza yetarli. Uning eksport hamda aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni ham yuqori. Demak, kambag'allikni kamaytirishda soha

o'ziga xos tajriba va salohiyatga ega bo'lishi kerak. Prezidentimizning 2024-yil 1-maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu boradagi imkoniyatni yanada oshirishga xizmat qiladi. Chunki hujjatda bu sanoatni sifat bosqichiga olib chiqishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi. Ip-kalavani qayta ishlash darajasini 2027-yil yakuniga qadar bosqichmasbosqich 100 foizga olib chiqish, dastlabki bosqichda Andijon va Namangan viloyatlaridagi to'qimachilikka ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini hamda Toshkent viloyatidagi industrial texnoparkni to'liq infratuzilma bilan ta'minlash,

zarur bino va inshootlarni tadbirkorlarning talab hamda loyihalari asosida qurib, tayyor holatda bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan yoki ijara asosida berish imkoniyatini yaratish shular jumlasidan.

Shuningdek, respublikamizni "to'qimachilik xabi"ga aylantirish va kamida xalqaro darajada tan olingan 10 ta mahalliy brend yaratish ustida ishlarni manzilli tashkil etish, korxonalariga ichki va tashqi bozorlarda o'z mahsulotlarini sotishga

ko'maklashish bo'yicha samarali choralarini ko'rish vazifasi qo'yilgan. Bu joylarda o'nlab yangi tadbirkorlik subyektlari paydo bo'ladi, minglab odamlar ishga joylashadi, degani. Eng muhimi, harakatlar amalda natijasini ko'rsatmoqda ham. Misol uchun, Jamoat ishlari jamg'armasi va "Marmara Group" strategik va ijtimoiy tadqiqotlar jamg'armasi ko'magida Quyi Chirchiq tumanida Turkiyaning "Teskak Textile Makina" korxonasi negizida yuqori sifati to'quv dastgohlarini O'zbekistondagi tadbirkorlik subyektlariga ijara asosida yetkazib berish va to'quv dastgohlarini ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish maqsadida "Talos" mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil qilindi. Buning uchun 10 million dollar to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritildi. Ishlab chiqarilgan to'quv dastgohlari "Showroom" taqdimotlari orqali sotiladi. Taqdimotlar mijozlarga mahsulotlarni yaqindan ko'rish, xususiyatlarini va foydalanish imkoniyatlarini bilan tanishish imkonini beradi.

Korxonada mablag'lari hisobidan turkiyalik malakali mutaxassislar mahalliy kadrlarni o'qitish orqali to'qimachilik institutlari hamda korxonalarini rivojlanishiga hissa qo'shadi. Tadbirkorlar xarid qilgan to'quv dastgohlari bo'yicha xizmat servisi ko'rsatilishi yo'lga qo'yiladi.


O'zbekiston brendi ostida to'quv dastgohlari korxonaning o'zida ishlab chiqarilib, ichki va tashqi bozorga yetkazib beriladi.

Bundan tashqari, mazkur loyihani amalga oshirishda Jamoat ishlari jamg'armasi mablag'lari hisobidan 5 milliard so'mlik kerakli jihozlar olib berildi. Korxonada zamonaviy texnologiyalar asosida mato ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan bo'lib, bugungi kunda ushbu mahsulotlar eksportga yo'naltirilmoqda.

Hozir korxonada 30 nafar xotin-qiz mehnat qilmoqda. Korxonada to'liq ishga tushirilganidan so'ng ishchilar soni 200 nafarga yetadi. Bunda, asosan, mahalliy aholi jalb etiladi.

Jamiyat rivoji va taraqqiyoti iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy sohalardagi yutuqlar, insonning qadr-qimmatiga bo'lgan e'tiborga bog'liq. Agar davlat insonni qadrlasa, u o'zini erkin his qiladi, jamiyatda o'rinni topishi oson bo'ladi. Bu iqtisodiy taraqqiyotga ham ijroiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning inson qadriga munosabati qonun va siyosatida aksini topishi kerak. Kambag'allik, ishsizlik va salomatlik muammolariga qarshi kurashish, odamlar uchun teng imkoniyatlar yaratish ularning qadr-qimmatini tan olishni ta'minlaydi.



Agrar tarmoq

KO'ZLANGAN MAQSDGA YETISH UCHUN IMKONIYATLAR TO'LIQ ISHGA SOLINISHI KERAK

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining joriy yil 20-noyabr kuni bo'lib o'tgan majlisida davlatimiz rahbari boshqa sohalar qatori qishloq xo'jaligidagi ishlarga ham alohida to'xtalib, bu borada uning barcha tarmoqlari, avvalo, meva-sabzavotchilikni intensiv rivojlantirish, yangi urug' navlarini yaratib, importni 50 foiz qisqartirish bo'yicha dasturlar borligini qayd etdi.



Hukumat va dasturlar ijrosini ta'minlab, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni 1,3 barobar ko'paytirish, har gektar yerdan olinadigan o'rta daromadni 5 ming dollarga yetkazish, sohada eksport hajmi 10 milliard dollardan iborat bo'lishi, suv tejaydigan texnologiya bilan qamrab olingan yer maydonlarini 2 karra oshirish bo'yicha ishni samarali tashkil etish zarurligi aytili. Bu masala ayni shu kuni Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmushini farovonligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda ham alohida ta'kidlandi. Xususan, Bulung'urning tuprog'i, iqlimi meva-sabzavotchilikka qulay. Tumandagi samarasi kam 6 ming gektar g'alla maydoni meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashtirilsa, gektaridan daromad 10 ming dollardan oshadi, 45 ming odam ishli bo'ladi. Mahsulotning yarmi xorijga sotilib, qo'shimcha 52 million dollar eksport tushumi ta'minlanadi.

Ishitxon, Urgut, Payariq va Qo'shrabotdagi odamlar 35 ming gektarda uzum yetishtiradi. Lekin sardoromad navlar ekish, kasallikka qarshi kurashish, yangicha agrotexnik tadbirlarga ko'nikma yetishmagani uchun hosildorlik past. Shu bois, Ishitxonda Akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tajriba stansiyasini tashkil qilish taklifi bildirildi. Unda in-vitro usulida ko'chatchilik yo'lga qo'yilib, uzumning "Gigant", "Siriliboy", "Avatar" kabi bozorbop navlari ekiladi. Natijada hosildorlik qo'shimcha 25-30 sentner, eksport 20 million dollarga oshadi.

Darhaqiqat, qishloq xo'jaligining iqtisodiyotimiz, aholi bandligi va turmush sharoitini yaxshilashdagi ahamiyati yuqori. Soha rivojiga qaratilayotgan loyihalar, amaliy ishlar shunga xizmat qilyapti. Lekin hali qilinadigan ishlar ko'p. Imkoniyatlardan to'liq foydalana olmayapmiz.

Bir paytlar bog'bonlarning bir necha avlodi o'z umrini baxshida etgan olmaning "Rozmarin", "Afrosiyob" "Qandil" degan navlari bo'lardi. Bahorgacha suvi bilan turardi. Sal qurt tushsa ham mazasi o'zgacha bo'lardi. Ular endi go'yo "ibtidoiy seleksiya" namunalari bo'lib qolganidek. Endi bozorlarimizga ko'p mevalar chetdan kirib kelyapti. Ko'pida chiroy bor-u, ta'mi yo'gdek...

Bu borada qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor To'raqul Xo'jaqulov bunday deydi:

— Nav yaratish juda murakkab ish. O'n yillab ishlaysiz. Har yili yuzta ko'chatdan ikki-uchtasini tanlab olasiz. Qolganlari bekor qilinadi. Ba'zan yaxshi nav yaratib, uni tasdiqdan o'tkaza olmaymiz... 20 yildan buyon seleksiya bilan shug'ullanaman. Olma dunyodagi eng ko'p yetishtiriladigan meva. Uning 7500 dan ortiq turi mavjud. Hozirgi xaridor avvalgidek emas, olma sotib olishda ta'midan ko'ra ko'rinishiga e'tibor beradi. Ko'pchilik o'zimizning sershira olmani emas, silliq, chiroyli xorij mevasini tanlaydi. "Olmaning qurt yeganini tanla", degan gap bor. Bunda urg'u o'simlikka kam kimyoviy ishlov berilganiga va uning ekologik jihatdan toza ekaniga qaratiladi. Chunki "toza" mevaga qurt tushadi. Tadqiqotlarga ko'ra, eng ko'p temr moddasi olmaning yashil rangli yirik "Simirenko" navida bo'ladi. Aytaylik, bizga ko'p keltiriladigan eron olmasi bir kilogrammi tarkibida temir tutishiga (85,9 milligramm) ko'ra "Simirenko"dan (bir kilogrammida 100 milligramm) keyingi o'rinda turadi. Shuningdek, O'zbekistonda o'sadigan "Baxmal", "Janatoy", "Gold", "Besh yulduz" kabi olma navlari ham temir moddasiga boy. Ammo eron olmasining uzog saqlanishi, ko'rinishi, qadoqlanishi bozorgiriligini oshiradi.

Chindan ham bugun ichki va tashqi bozor talabari qat'iy bo'lib, mahsulot faqat ta'mi emas, sifatli saqlanishi, ekologik holati, chiroyli qadoqlanishi kabi omillarga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda meva yetishtirishda jahon bozorlari talabidan kelib chiqib, seleksiya va agrotexnika ishlarini yo'lga qo'yish taqozo etilmogda. Bu borada Samarqand fermer



va qishloq xo'jaligi korxonalarini ixtiyorida 26,6 ming gektar bog'ning 15,8 ming gektari intensivlashtirildi.

— Biz yoshligimizda tatib ko'rgan, ta'mi og'zimizdan ketmagan olma navlari zamon taqozosi va vaqt sinovida o'z o'rini Yevropadan keltirilayotgan intensiv navlarga bo'shatib bermogda, — deydi so'zida davom etadi To'raqul Xo'jaqulov. — Buning sababi oddiy. Xorij navlarining samaradorligi yuqori. Misol uchun, mahalliy olma hosildorligi gektariga 20 tonna bo'lsa, xorijniki 70 tonnani tashkil etadi. Yevropada gektariga 70 tonnadan kam hosil bergan bog'lar buzib tashlanadi. Xo'sh, ular bunday hosildorlikga qanday erishadi? Avvalo, daraxt hajmi ixchamligi sabab, ko'chatlar tig'iz ekiladi. Tomchilatib sug'oriladi. Beriladigan organik va kimyoviy o'g'itlar juda sifati. Sovuq urishi va boshqa salbiy omillarning innovatsion yechimi topilgan.

Hozir dunyoda organik mahsulotlarga talab o'sib bormogda. Yevropa va boshqa xorij mamlakatlarida tayyor sertifikatlangan organik mahsulotlar xaridorgir. Bizning meva-sabzavot mahsulotlari tabiiy ravishda organik hisoblanadi, to'liq standartlarga javob bersada, biroq aksariyati tegishli tashkilotlar tomonidan

yetarlicha sertifikatlangan. Shu yo'nalishdagi muammolar yechimi ham mahalliy eksportchilar oldida turgan muhim va dolzarb masala.

Samarqand viloyatida 26 ming gektar yerda 400,9 ming tonna meva va rezavor yetishtiriladi. Mutaxassislar olmaning umri nari borsa 30 yil deb hisoblaydi. Shu bois, viloyatdagi eski, samarasiz bog'lar o'mida yangi intensiv bog'lar yaratilmogda. Jumladan, 2024-yil bahorida 2,5 ming gektar intensiv bog' tashkil etildi. Shuningdek, yil yakuni bo'yicha barcha toifa xo'jaliklarida 407 ming tonna meva va 678 ming tonna uzum yetishtirilishi ko'zda tutilmogda.

— Meva-sabzavotchilik tarmog'i jami ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qariyb yarmini tashkil etgani holda aholining asosiy daromad manbalaridan birdir, — deydi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi Samarqand viloyati bo'limi bosh mutaxassisi Shomirza Safarov. — U sanoatning boshqa qator tarmoqlari rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu tarmoq mamlakat qishloq xo'jaligi eksportida asosiy o'rinni egallaydi. Bugungi kunda viloyatda tuproq-iqlim sharoiti va qurg'oqchilikka chidamli mevali daraxtlar maydonini bosqichmasbosqich ko'paytirish bo'yicha "yo'l xaritasi"

tasdiqlangan. 2024-yildan 2026-yilgacha 10 ming gektar pista va 2 ming gektar funduk (o'rmon yong'og'i) plantatsiyalari tashkil qilish boshlanib, hozirgacha 1022 gektar pista va 228 gektar maydonda funduk ko'chatlari qadalgan. Yil yakuniga qadar meva-sabzavotchilik yo'nalishidagi 4,2 mingta subyektda 1 million 950 ming tonna sabzavot, 122 ming tonna poliz, 407 ming tonna meva va 678 ming tonna uzum yetishtiriladi. Ayni paytda Samarqandda yetishtirilgan meva va sabzavotlar 56 ta mamlakatga eksport qilinmogda.

Dehqonlarimizning mehnati sabab ichki bozorda mahsulot serobligi ta'minlanayotgani bor gap. Sarxil mevalar, xususan, olma ancha arzon. Yuqorida mutaxassis ta'kidlaganidek, "Simirenko", "Baxmal", "Gold", "Besh yulduz"larimiz har qanday xorij olmasi bilan bellasha oladi. Shunday bo'lsa-da, nega ularning narxi juda arzon?

— Yigirma yildan buyon savdo sohasida dehqonlar mahsulot serobligi ta'minlanayotgani bor gap. Sarxil mevalar, xususan, olma ancha arzon. Yuqorida mutaxassis ta'kidlaganidek, "Simirenko", "Baxmal", "Gold", "Besh yulduz"larimiz har qanday xorij olmasi bilan bellasha oladi. Shunday bo'lsa-da, nega ularning narxi juda arzon?

Yurtimizda meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida katta e'tibor qaratilmogda. Zero, meva-sabzavotlarni tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotgani ham sohani tubdan isloh ishlayman. Mahalliy olma navlarini ham, xorijnikini ham sotamiz. Eron olmasi unchalik shirali bo'lmasa-da, bir tekis, tovlanib ko'rinishi, bejirim qadoqlanishi bilan xaridorlar e'tiborini tortadi. Shu bilan birga, ular sovuqqa chidamli, qattiq, ezilib ketmaydi, yaxshi saqlanadi, shunga savdosi chaqqon. Bizga xorijdan ko'plab qulupnay, malina, o'rik murabbolari, olma pyurelari keladi. Chiroyli qadoqlangan. Meva eksportida yuqori o'rnlarda qayd etilsakda, o'zimiz xorijga jo'natayotgan mahsulotni qaysidir ko'rinishda yaxshigina narxga import qilmoqdamiz, — deydi savdo xodimi Orzu Rahmonov.

Yana bir jihat, bozorlarimiz to'kisligini ta'minlash, narx-navo barqarorligini saqlash, qishki-bahorgi mavsumda son'iy qimmat bo'lib ketishining oldini olish maqsadida viloyatda quvvati 270 ming tonna bo'lgan 277 ta sovitsh ombori ishlab turibdi. Lekin viloyatda 407 ming tonna meva va 678 ming tonna uzum yetishtirilishi va qo'shimchasiga poliz mahsulotlari ham bahorga qadar saqlanishini inobatga olsak, sovitsh



omborlari soni va quvvatini yanada oshirish taqozo etiladi.

Mahsulot tannaxsidagi yana bir masala — mevachilikka ob-havoning ta'siri.

— Yil davomida haroratning me'yordan bir oz o'zgarishi ham meva hosildorligi va sifati pasayishiga, ba'zan esa daraxtlar nobud bo'lishiga olib keladi. Bog'bon va mirshkor uchun eng katta xavf bahorgi sovuq urishdan keladi — ayoz bir necha soat ichida bog'bonning butun ishini chippakka chiqarib, uni bir yillik daromaddan mahrum qilishi mumkin. Shuningdek, kuzdagi erta tushgan sovuq ham anchagina xavf tug'diradi, — deydi tajribali bog'bon Ortiq Mirzayev.

Yurtimizda meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida katta e'tibor qaratilmogda. Zero, meva-sabzavotlarni tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotgani ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi. Hisob-kitoblariga ko'ra, 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta xomashyosiga nisbatan uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yong'oqdan 5 baravar ko'p daromad olish imkoniyati mavjud. Bu masalaning iqtisodiy jihati bo'lsa, inson salomatligiga doir dolzarb masala ratsional ovqatlanish va temirga boy mahsulotlarni iste'mol qilish talabi. Masalan, amniyating oldini olishda temir moddasiga boy bo'lgan olma iste'moli ijroiy samara beradi.

Bugun bog' va meva yetishtiruvchilar doimiy davlat e'tiborida. Ularga qator imtiyozlar, imkoniyatlar yaratilmogda.

— 30 gektar tokzorimiz bo. 2023-yil uzum ko'chatlarini ko'tarish maqsadida 150 million so'mlik subsidiya olgan edik. Bu ish ortidan hosildorlik qariyb ikki barobar oshdi. Uzum yetishtirib, ichki bozorga va eksportga jo'nataymiz, — deydi Samarqand tumanidagi "Azizov Qurbon" fermer xo'jaligi rahbari Jamshid Azizov.

Meva yetishtirishda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida bog'lar va tokzorlarda ishlov beradigan, meva va sabzavot ekadigan, yig'ishtirib oladigan texnika zarur. Ayniqsa, fermer, dehqon xo'jaliklariga yoqilg'i-moylash mahsulotlari, mineral o'g'itlar, urug'lik yetkazib berish, kasallik va zararkundalarga qarshi kurash ishleri talab darajasida bo'lishi, shu bilan birga, sohani rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlari tizimi yo'lga qo'yilishi taraqqiyotning muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Viloyatda 20 ta meva-sabzavotchilik agroklasteri faoliyat ko'rsatmoqda va ular orqali bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini innovatsion resurs tejaydigan usulda saqlash hamda qayta ishlagan ixtisoslashgan namunaviy korxonalar faoliyati yo'lga qo'yilmogda.

Albatta, ushbu chora-tadbirlar natijasida meva-sabzavot va uzum mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanada ortadi. Aholi uchun sifati va arzon mahsulotlari yetishtiriladi, yangi ish o'rnlari yaratiladi.

FIKRLAYOTGAN ODAM

Minbar

Fikr ichki qiyofadir. Ya'ni fikringiz siz nimani xohlashingiz, nimaga intilishingizni bildiradi. Fikr odamning o'ziga xosligini eslatish bilan birga uning mavjudligini ko'rsatib, mana shu mavjudlik tadjiriy o'sib borishini muttasil nazorat qilib boradi. Yozuvchi Nazar Eshonqul aytmoqchi, fikr aslida "men mavjudman", "men borman", degani. Mening fikrim - mening qiyofam, mening o'zim. U boshqanikidan tubdan farq qilishi, birova yoqmasligi mumkin, g'ashiga tegar, ammo u mening qiyofam. Fikr barmoq izlarimiz kabi o'ta shaxsiy bo'ladi. Ammo gap bu haqida emas. Gap mana shu shaxsiy fikrni, g'oyani, qarashlarni yangilab, o'zgarish va o'sishga yo'l ochadigan umumiy o'yaga aylantirishda. Biz fikrni o'z muhitimizga moslab ifoda etamiz, shu muhitni fikrimiz bilan tozalashni, o'zgartirishni, ommalashtirishni xohlaymiz.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisidagi nutqida Prezidentimiz ilgari surgan muhim fikrlar, taklifi rejalar, tashabbuslar yashash tarzimizga moslab ifoda etilgan, jamiyatdagi har bir qatlamning og'rig'i, huzuri, tashvishi va umidi birdek his qilinganidan so'ng tuzilgan samimiy maqsadlar shu sababdan tezda ommalashdi va jamiyatimizning e'tirofiga erishdi. Ko'rinib turibdiki, fikr — taraqqiyot mezon. Biz fikr qilib bugungi taraqqiyotga erishdik. Ko'proq

fikrlasak, ertaga tezroq navbatdagi bosqichga ko'tarilamiz. Yurt taqdiriga befarq bo'lmasak, voqealarni anglash borasida peshqadam odamlar shakllanib, safi kengayishda davom etadi. Ular turli soha vakillari — bankir, o'qituvchi, tarjimon, sartarosh bo'lishi mumkin, ammo ularni o'sha jihat — qalblarida millat g'ami

borligi, muammolar ko'lamini his etish, his qildirish va voqealarni yaxshi anglash iste'dodi birlashtirib turaveradi. Aynan ular istiqbolli islohotlarni o'yog'ini osmondan qilib yuborishga urindadigan toifaga qarshi turadi. Shuning uchun shunday millat oydinlari bo'lishga harakat qilayotgan ilg'or yoshlarning muhazalari bilan qiziqdik. Ayni kunlardagi jarayonni ular qanday baholayotganini bilishni istadik.



Ahror ABDUMANNON, "Asaxiy Books" nashriyoti musahhihi:

— "Kapalak effekti" atamasi haqida ko'pchilik bilsa kerak. Sodda aytganda, kichik, biz mayda deb o'ylaydigan harakatlar, qarorlar vaqt o'tib yirik oqibatlar, natijalar keltirib chiqarishga sabab bo'ladigan jarayondir. Masalan, bunday gap bor: mix tugab qoldi, natijada taqa qoqilmadi, taqa qoqilmagani sabab otdan mahrum bo'lindi, suvoriy otiz urushga kirolmadi, suvoriy yo'qligi sabab jang boy berildi, butun boshli saltanat parokandalikka yuz tutdi. Buning hammasi o'sha bir dona mixga borib taqaldi.

Albatta, har ish, har hodisa Allohdan. Olam shunday mukammal tartib bilan harakatlanadiki, har ne bir-biriga nozik, ko'rinmas iplar bilan bog'langan. Boriq siz qattiq istagan narsangizga erishishda ko'maklashadi. Yolg'iz o'zim nimani ham o'zgartira olardim deb hafsalasizlik qilish esa yaqinda bo'lib o'tgan

majlisidagi mag'zi to'g' o'yalariga qo'l siltab qo'yishdek bema'ni va xunuk ish. O'zaro davralarda baribir hech narsa o'zgaraydi deb luqma tashlab qo'yish qo'rqoqlikdan, jur'atsizlikdan boshqa narsa emas.

Na iqtisodiyot, na siyosat, na ta'lim haqida tugal tushunchaga ega bo'lmagan ba'zi "bloggerlar"ning shu holatga kelib qoldikmi, degan asossiz vahima tarqatib, o'zini jamiki fanlarning faylasufi qilib ko'rsatishga chiranayotgan xatti-harakatlarini ikki qadam uzoqda turgan o'yinchog'ini olishga erinib, yig'layotgan qaysar bolachaning xarxashasiga o'xshataman. Ularga qarab istalgan islohotlar, avvalo, sizning harakatingizda aks topadi, degim keladi. Siz nolib yotaversangiz, hech kim kelib o'ringizga fikrlab, o'ringizga ishlab, o'ringizga pul topib bermaydi. Umuman, hayotga odam kayf-safo qilish uchun kelgan. Har qanday sog'lom fikrli inson yashash tarzini qulaylashtirish asnosida kelajak avlod uchun madaniy, iqtisodiy, ma'naviy meros qoldirish, bejiz yashab o'tmabman, degan iqrar uchun yashaydi. Prezidentimiz shu g'oya, shu maqsad yo'lida birlashishga chorlayapti, mas'uliyat va fidokorlikni talab qilyapti, buning nimasi yomon? Axir o'sha ishingizning samarasi, birinchi navbatda, o'zingizda seziladi-ku?!

"Kapalak effekti"ning kuchi ham shunda. Siz kichik, ammo sifatli ishlar bilan yillar davomida soyada qolgan muammolarga naqta qo'yishingiz yoki galdagi ixtirolar, tashabbuslarga sababchi bo'lishingiz mumkin. Barchasi aynan hozirgi harakatingizga, qarorlaringizga bog'liq.

Davrdoshlarim bilan kechgan subhatlarning yakunida latifanamo bir gap yodimga tuskdi. Vagonlari odamlar bilan liq to'la poyezd aslida buzilgan, bir joyda turgan bo'ladi. Ammo tashqaridagilar poyezdni shunday liqlatib turadiki, go'yo ichkaridagilar oldinga qarab ketyapmiz deb o'ylaydi. Fikr ham shunday. U to'xtagan joyda rivojlanish ma to'xtaydi, faqat "rivojlanaypmiz" degan aldanchi tasavvur bo'ladi.

Odam o'zini anglash bilan birga xalq tashvishini o'zini kundan ustun qo'ysa, fikri o'sadi. Buning uchun ma'rifat kerak. Fikrni ma'rifat uyg'otadi, o'stiradi, yangilaydi. Faqat ma'rifatgina, bilimgina bizni quydumiy bostirib kelayotgan, ongimizni, qidimizni sayozlashtirayotgan, san'at, axloq, saviya haqidagi tushunchalarimizni, shu paytgacha ajdodlarimiz shakllantirib bergan va o'zimiz shakllantirgan qarashlarni yemirishga kirishgan olomon madaniyati hamda farosatsizligidan, boshqacha aytganda, fikrsizlikdan, olomonchilikdan asray oladi.

Prezidentimiz ma'ruzasidagi fikrlarning taraqqiyot uchun asos ekanini o'ziga kitob varaqalagan, istalgan hududdan turib islohotlarni kuzatayotgan odam biladi, tushunadi. Umumbashariyatga taalluqli ushbu fikrlar jamiyatda bir vaqtning o'zida ham ruhiy, ham ma'naviy, ham madaniy yaratuvchanlik paydo bo'lib, yuksalishda tayanch vazifasini o'tashiga shubha yo'q.

Azizbek YUSUPOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Shahobiddin LUQMON, "Yoshlar ovozi" gazetasi muxbiri, jamoat faoli:



— Olovda taom pishirib yeyishni o'rgangan tosh asri odami o'sha davr fikrida chinakam inqilob qilgan, uning atrofidagilardan o'zgararoq fikrlagan uchun chaqmoqtoshdan o't chiqara olishni anglagani va bu gulxanda go'sht qovurishga uringanining o'ziyoq misli ko'rilmagan buyuk hodisa, o'ziga xos madaniyat bo'lgan. U eng birinchi fikrlarning dastlabki daholaridan edi. Agar u hammaga o'xshab fikrlaganda, ehtimol, bugungi taraqqiyot ancha kech yetib kelardi. Fikringiz qudrati shunday. Ilg'or fikrlar jamlanmasi buyuk islohotlarni yaratadi. Islohotlar esa tizimlilikni ta'minlaydi, tizim bilan harakatlangan mamlakat o'z yo'lini belgilab oladi va unga qat'iy amal qilish orqali yuksak marralarni zabt etadi. Ko'ryapsizmi, hammasi bir-biriga bog'liq. Majlisda aytilgan gaplar aynan shu silsila uzilmasligi haqida edi. Prezidentimiz ma'ruzalaridagi fikrlarini qo'llab-quvvatlayman va kelgusi rejalar amalga oshirishga ishonaman. U nega bizning ikki o'q tomirimiz ma'naviyat hamda iqtisodiyot ekanini, ulardan biri taraqqiy topsa, ikkinchisi

ham, shubhasiz, rivojlanishini ta'kidladi, chunki ma'naviyat, avvalo, madaniyatimiz, qadriyatlarimizdan kelib chiqib shakllanadi. Madaniyatda esa daho ajdodlarimizning yashirin quvvati, ijodiy salohiyati mujassam. Agar undan to'g'ri foydalana bilsak, uni bugungi davr ruhiga moslashtirishni uddalay olsak, biz submadaniyat va tashqaridan tashlangan boshqa manipulyativ to'rlarga ilinmaymiz, ilinish tugul, e'tibor qaratisga vaqtimiz bo'lmaydi, boisi, o'zimizni muhtazam isloh qilishdek ulkan jarayon ichida javlon urayotgan bo'lamiz.

Yeng shimarib biror yaxshi ishga kirishgandan so'ng yoki shu jarayon ichida ma'naviyatga oid fikrlar, madaniyatimiz san'ati, falsafasi rivoj topdi, bevosita u ijtimoiy fikrga turki berdi, qadriyatlarimiz orqali xilma-xil g'oyalarga yo'l ochildi. Prezidentimiz aynan mana shu fikrlarga va g'oyalarga yo'l bermoqchi, bu g'oyalar ichida, albatta, iqtisodiy, texnologik, ilmiy g'oyalar borligiga ishonaypti, uni amalga oshirishga imkoniyat yaratishni allaqachon boshlab yuborgan, biz ham boshlaganmiz.

Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvinu tashkil etish, "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish "O'zbekiston — 2030" strategiyasining asosiy g'oyalaridan ekanini bilgan har bir sog'lom fikrli yurtdoshimiz qay yo'l bilan bo'lsa-da elga nafi tegish haqida ko'proq qayg'urib, mas'uliyatni chuqurroq his eta boshlaydi. Chunki bu ishlar zamiridagi ezu va xolis niyat vijdonli odamga, yaxshi ma'noda, sira tinchlik bermaydi.

Munosabat



MEHNAT MIGRATSİYASI GEOGRAFIYASINI KENGAYTIRISH NEGA MUHIM?

Farrux MASHARIPOV, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi boshqarma boshlig'i



Ayni paytda sayyoramiz aholisining har 7 nafaridan biri migrantdir. Ularning yillik pul o'tkazmalari umumiy aylanmasi 350 milliard dollarga teng bo'lib, mazkur ko'rsatkich rivojlanayotgan davlatlarga moddiy ko'mak berishga yo'naltirilgan sarf-xarajatlardan sezilarli darajada yuqori.

Mehnat migratsiyasi masalasi O'zbekiston uchun ham dolzarb. Shu bois, unga e'tibor ancha kuchaygan. Xususan, yurtga qaytgan mehnat migrantlari bandlegini ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lganlarga moddiy yordam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi. Tashqi mehnat migratsiyasini qonuniy asoslarda tashkil qilish, davlatlarning ushbu sohada samarali hamkorligi hamda migratsiya bo'yicha xalqaro standartlarga amal qilish mehnat migrantlari huquqlari ta'minlanishining asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Mehnat bozorida faol ishtirokini ta'minlash imkonini bermog'da.

Xorijga ishlash maqsadida chiqib ketgan fuqarolar nafaqat mehnat qilish uchun borgan davlati, balki o'zi tug'ilib o'sgan va istiqomat qiladigan mamlakati iqtisodiyoti rivojiga ham katta hissa qo'sha oladi. Shu bois, mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, davlat tomonidan mamlakat hududida ham, uning tashqarisida ham ishonchli ijtimoiy va huquqiy himoya kafolatlarini kuchaytirish kun tartibidagi asosiy masalaga aylanishi lozim.

Mamlakatimizda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish masalasiga jiddiy e'tibor berilmog'da. Jumladan, davlat noqonuniy mehnat migratsiyasiga qarshi kurashmog'da, fuqarolarni xorijga uyushgan holda ishga joylashtirish uchun tegishli ishlar qilinmog'da. Shu bilan birga, yurtga qaytgan mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish doimiy e'tiborda. Jumladan, bu yo'nalishda joriy yil 17-oktabrda Prezidentimizning "Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish

bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni va "Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati tugatildi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi etib qayta tashkil etildi. Migratsiya agentligining asosiy yo'nalishlari belgilandi. Unga ko'ra, agentlikning elektron platformasida fuqarolarga o'zining rezyumesini shakllantirish va joylashtirish hamda e'lon qilingan ish o'rinlari bo'yicha tanlovlarda erkin ishtirok etish imkoniyati yaratiladi.

Vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun tashkillashtirilgan holda rivojlangan mamlakatlarga chiqib ketayotgan fuqarolarga tijorat banklari tomonidan Migratsiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan 10 million so'mgacha ikki yil muddatga mikroreditlar ajratiladi. Agentlikning hududiy filiallari tomonidan fuqarolarning xorijda ishga joylashish bilan bog'liq, shu jumladan, ishchi vizaga oid hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha bepul konsalting xizmatlari ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, xorijga ishlash uchun ketmoqchi bo'lgan fuqarolarni kasb-hunar va chet tillarga o'qitish tizimini zamon talabiga moslashtirish, mazkur yo'nalishda xalqaro tan olingan dasturlar va malaka sertifikatlarini joriy qilish maqsadida 2024-yil 1-dekabrda boshlab kasbiy ta'lim tashkilotlarida xorijga ishga ketmoqchi bo'lgan fuqarolar uchun davlat granti asosida alohida qabul parametrlari belgilanadi. Xorijga ishga ketmoqchi bo'lgan fuqarolarni o'qitish uchun Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan grantlar ajratiladi. 2025/2026-o'quv yilidan boshlab kasbga o'qitish muassasalarida xalqaro ta'lim dasturlari asosidagi o'quv kurslari tashkil etiladi hamda ularning bitiruvchilarga xorijiy ish beruvchilar tomonidan tan olinadigan malaka sertifikatlari berish tizimi joriy etiladi. Migratsiya agentligining elektron platformasida kasbiy ta'lim muassasalari va kasbiy ko'nikmalar markazlarida faoliyat yuritayotgan chet tili fani o'qituvchilari reytingi tuziladi.

Bunda ingliz, koreys, nemis va yapon tillari bo'yicha kamida B1 yoki unga tenglashtirilgan darajadagi xalqaro sertifikat olgan bitiruvchilari

USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



soni eng ko'p bo'lgan 50 o'qituvchiga jamg'arma hisobidan 50 million so'mdan subsidiya to'lanadi. Xususiy bandlik agentliklariga chet elda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolarni kasb-hunar va chet tillarga o'qitish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish hamda ushbu jarayonga hamkor xorijiy ish beruvchilarni jalb qilish huquqi beriladi.

2026-yil 1-yanvarga qadar agentlikning fuqarolarni tashkillashtirilgan holda tanlash, xorijga ishga yuborish va ishga joylashtirish bilan bog'liq funksiyalari bosqichma-bosqich xususiy bandlik agentliklariga o'tkaziladi.

Mehnat migratsiyasi o'sishdan to'xtamaydigan jarayondir. Shu bois, fuqarolar uchun xalqaro mehnat bozorida munosib mehnat qilish uchun sharoit yaratish hamda mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish lozim.

Mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagilar taklif etiladi:

— tashqi mehnat bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, bugun va istiqbolda qanday mutaxassislarni tayyorlash hamda ular qanday kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligini belgilash;

— O'zbekiston uchun mehnat migratsiyasi geografiasini kengaytirish maqsadida Yevropa, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Turkiya, Janubiy Koreya va Yaponiya va arab davlatlari o'rtasida uyushgan migratsiyani rivojlantirish zarur.

Bunda rivojlangan davlatlarning ish beruvchilarini jalb qilgan holda O'zbekistonning mehnat resurslari potentsiali mavzusida forumlar tashkil qilish lozim. O'zbekiston uchun mehnat migratsiyasi geografiasini kengaytirish juda muhim. Bu bir necha sabablarga ko'ra amalga oshiriladi.

Birinchiidan, iqtisodiy xavflarni yimshatadi va mamlakatning iqtisodiy injineroziga bardoshlilikni oshiradi.

Ikkinchiidan, mamlakat iqtisodiyoti uchun xorijdan yuboriladigan pul o'tkazmalarini ko'paytiradi.

Uchinchiidan, rivojlangan davlatlarda mehnat qilish fuqarolarga yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlash hamda kasbiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

To'rtinchiidan, rivojlangan davlatlarda ishlash mehnat bozorida diversifikatsiyani oshiradi, bu esa xalqaro iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga moslashuvchanlikni kuchaytiradi.



Buyuk ajdodlarimiz

ALI QUSHCHI:

Mangulikning besh yarim asri



Mirzo Ulug'bekning eng ishonchli do'sti va shogirdi sifatida u ustozining "Ziji Ko'ragoniy" asariga sharh yozgan. Mirzo Ulug'bekning fojiali o'limidan so'ng bir muddat Tabrizda, Oqqyunlilar hukmdori Uzun Hasan saroyida yashagan olim 1473-yili usmoniy hukmdori Fohit Sulton Mehmetning taklifiga binoan Istanbulga kelgan. Sultonning o'zi unga Ayo Sofiya masjidini rasadxona sifatida topshirgan.

ham ko'p jihatdan Ali Qushchining ilmiy farazlariga asoslangan. Holbuki, Kopernik Ali Qushchi vafot etgan yili tug'ilgan, demak, uning ilmiy merosini o'rgangan, undan bahramand bo'lgan.

Simpoziumda O'zbekiston, Turkiya, AQSH, Ozarbayjon, Eron, Malayziya, Livan singari mamlakatlarning taniqli olimlari ham buyuk vatandoshimiz Ali Qushchining hayoti va faoliyati, matematika, geografya, ilmiy nujum, adabiyot, mantiq, fiqh, tarix hamda tilshunoslikka oid asarlari, allomaning dunyo ilm-fani rivojiga qo'shgan hisssasi haqida qiziqarli ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi ekspozitsiyasida ham Mirzo Ulug'bek astronomiya maktabi, Ali Qushchi davri, hayoti va faoliyati bilan bog'liq manbalar, tarixiy eksponatlarni namoyish etishga alohida e'tibor qaratilyapti. Jahon fondlarida saqlanayotgan, ushbu davrga oid tarixiy ashyolar haqida ma'lumotlar to'planmoqda. Jumladan, Britaniya muzeyida Mirzo Ulug'bekning shaxsiy kosasi, Oksfordda Mirzo Ulug'bek rasadxonasida qo'llangan globus nusxasi saqlanayotgani ma'lum bo'ldi. Bizning doimiy hamkorlarimizdan biri — Istanbul universiteti professori Emek Ushenmez ayni paytda Ali Qushchining o'g'li qalamiga mansub, dehqonchilik ilimga bag'ishlangan turkiy qo'lyozma topilganini ma'lum qildi.

Simpoziumda ishtirok etgan vakillarimiz bugungi kunda O'zbekistonda barcha sohalar qatori ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohalariga, xususan, madaniy merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilayotgani, ikki davlat rahbarlari yetakchiligida do'stona munosabatlar tobora mustahkamlanib borayotganini ta'kidladi. Shuningdek, markazimiz faoliyati haqidagi hujjatli film yig'ilganlar e'tiboriga havola etildi. Ma'ruzada Ali Qushchining ilmiy merosi haqida ham to'xtalib o'tildi. Shuningdek, alloma hayoti va faoliyati bo'yicha O'zbekistonda ham xalqaro anjuman o'tkazish lozimligi ta'kidlandi.

Turkiya Fanlar akademiyasi prezidenti Muzaffar Sheker o'zbekistonlik mehmonlarga tashrif uchun minnatdorlik bildirib, kelgusida turk dunyosining buyuk vakili bo'lgan Ali Qushchi hayoti va merosini o'rganish yuzasidan ikki davlat olimlari o'rtasida hamkorlik qilish lozimligini qayd etdi.

Xalqaro anjuman doirasida Turkiya Qo'lyozmalar boshqarmasi tashabbusi bilan Ali Qushchi hamda uning davriga oid qo'lyozmalar ko'rgazmasi tashkil etildi. Turkiya Qo'lyozmalar boshqarmasi boshlig'i Jorj Yilmaz bizni mazkur ko'rgazmadagi ellikka yaqin qo'lyozma bilan tanishtirdi. Bunday ko'rgazmani O'zbekistonda ham tashkil etish lozimligi alohida ta'kidlandi.

Simpoziumdagi qizg'in bahs-munozaralarda o'zbek xalqining jahon tamadduniga qo'shgan hisssasi beqiyos ekanini yana bor tasdiqlandi. Vafotidan so'ng oradan besh yarim asr o'tganiga qaramay, buyuk allomaning nomi, amallari va asarlari, kashfiyotlari dunyo ahlining e'tiboridan tushmay kelmog'ida. Ana shunday buyuk zotlarga ma'naviy voris ekanimiz har birimiz uchun ham g'urur bag'ishlaydi, ayni damda zimmamizga ulkan mas'uliyat ham yuklaydi.

Mamlakatimiz tarixining turli davrlarida jahonshumul sivilizatsiyalar, yirik imperiyalar, havas qilsa arzigulik shaharlar va bebaho me'moriy obidalar vujudga kelgan. Ayniqsa, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tengsiz madaniy meros namunalari insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan. Bu ilmiy, tarixiy va badiiy asarlar bugun dunyoning turli nuqtalarida, xorij to'plamlari, jamg'armalari, kutubxona va muzeylarida saqlanmoqda.



Firdavs ABDUXOLIQOV, O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi direktori

Bugun barcha sohalar qatori ilm-fan, ta'lim va madaniyatga, xususan, madaniy merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ana shu maqsadda 2017-yilda O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazini barpo etishga kirishildi. Ayni paytda poytaxtimizning tarixiy mavzesida markazning muhtasham binosi qad rostlamog'ida.

Ushbu markaz O'zbekiston zaminidagi qadimiy sivilizatsiyalar, ajdodlarimizning boy va betakror merosi, jahon tamadduniga qo'shgan munosib hissasini ko'rsatadigan yirik platformaga aylanishi kutilmoqda. Bu yerda tariximiz va madaniyatimizga bog'liq ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi.

Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, markazimiz eshiklari biz bilan hamkorlikda ishlashni istagan xorijlik olimlar va tadqiqotchilar uchun hamisha ochiq bo'ladi.

Ayni paytda O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, buyuk ajdodlarimiz yaratib qoldirgan ilmiy va ijodiy asarlarni tadqiq etish, ularning jahon tamadduniga qo'shgan hissasini aniqlash maqsadida markazimiz tomonidan qator tadqiqotlar qilinmoqda, mahalliy va xorijlik olimlar ishtirokida ilmiy anjumanlar o'tkazilyapti. Shu bilan birga, markaz olimlari xorijda o'tayotgan turli konferensiyalarga ham tez-tez taklif etilayotir.

Joriy yilning 18-20-noyabr kunlari Turkiya Fanlar akademiyasi va bir qancha oliy o'quv yurtlari tashabbusi bilan Istanbulda buyuk arbob va olim Ali Qushchi vafotining 550 yilligiga bag'ishlangan xalqaro simpozium o'tkazildi. Turkiya fanlar akademiyasi prezidenti Muzaffar Shekerning taklifiga binoan bir guruh o'zbekistonlik olimlar safida mazkur konferensiyada ishtirok etdik.

Mirzo Ulug'bek astronomiya maktabining yirik vakili, buyuk vatandoshimiz, turk dunyosining yetuk allomalaridan biri Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi nomi dunyo ilmiy jamoatchiligiga yaxshi tanish.

Simpozium bevosita Ali Qushchi vafotining 550 yilligiga bag'ishlanishi ham o'ziga xos ramziy ma'noga ega. Zero, umrini ezgulikka, ilm-ma'rifatga bag'ishlagan insonlar nomi asrlar o'tsa-da barhayotdir. Ali Qushchi yetmish yillik hayotini ilm-fan taraqqiyoti, millatning bilimi va tafakkurini yuksaltirishga bag'ishladi. Buyuk mutafakkir Mirzo Ulug'bek tamal toshini qo'ygan Samarqand astronomiya maktabi rivojiga katta hissa qo'shdi. Samarqandagi rasadxona va madrasalarda uzoq yillar Mirzo Ulug'bek bilan yonma-yon faoliyat yuritdi. Matematika, geografya, ilmiy nujum, adabiyot, mantiq, fiqh, tarix va tilshunoslikka oid yigirmanadan ziyod asar yaratdi.



Mirzo Ulug'bekning eng ishonchli do'sti va shogirdi sifatida u ustozining "Ziji Ko'ragoniy" asariga sharh yozgan. Mirzo Ulug'bekning fojiali o'limidan so'ng bir muddat Tabrizda, Oqqyunlilar hukmdori Uzun Hasan saroyida yashagan olim 1473-yili usmoniy hukmdori Fohit Sulton Mehmetning taklifiga binoan

Istanbulga kelgan. Sultonning o'zi unga Ayo Sofiya masjidini rasadxona sifatida topshirgan.

Alloma umrining so'ngiga qadar usmoniy saroyida faoliyat ko'rsatib, ilm-fan, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish bilan mashg'ul bo'ldi. Garchi ulug' mutafakkir umrining oxirgi kunlarini Samarqanddan yiroqda o'tkazgan bo'lsa-da, Istanbul uchun ikkinchi vatan darajasiga ko'tarildi. Fohit Sulton Mehmet alloma uchun barcha sharoitlarni yaratib berdi.

Ali Qushchi Istanbulda bir yildan ortiqroq vaqt davomida yashab, talabalarga dars bergan. Olimning vafotidan so'ng sultonning farmoniga ko'ra, hurmat nuqtayi nazaridan uning Istanbuling eng qutlug' qadamjosi — Konstantinopol qamali chog'ida shahid bo'lgan sahobai kirom Abu Ayyub Ansoriy (r.a.) maqbarasi yoniga dafn etiladi. Ta'bir joizki, bunday sharaft usmoniy saroyidan kamdan kam kishiga nasib qilgan. Ayni paytda o'nlab qabrlar orasida birgina Ali Qushchi qabr toshida uning qisqacha hayot yo'li oltin harflarda bitilgan.

Joriy yil sentabr oyida Turkiyadagi qator ilmiy-ma'rifiy muassasalarga safar chog'ida ham buyuk alloma qabirini ziyorat qilib qaytgan edik. Simpozium tufayli yana bir bor



NARGIZANING "UMID" I YOSHLARGA MA'RIFAT ULASHMOQDA

Jiydali qishlog'i Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi so'lim go'shalardan biri. U tabiati, dalkash odamlari bilan ajralib turadi. Nargiza Qo'shmonova shu qishloqning faol, boshqalarga o'xshamaydigan yoshlaridan. Aslida, u ham qishloqning odatiy hayotiga ko'nikib, jimgina yuraversa bo'ladi. Ammo uning boshqalarga o'xshamasligi, ko'p kitob o'qigani, dunyoqarashi kengligi bunga yo'l bermaydi. Boshqa bolalar ham kitob o'qisin, dunyoga teran nigo bilan qarashni o'rgansin deydi. Qachon qishloq odamlari o'zgaradi, bolalar orasida kitobxonlik ommalashadi, degan savolga javobni o'zgalardan emas, o'zidan izlaydi. Ular shunday yashab ko'nikkan ekan, nega men tengdoshlarimni o'zgartira olmayman deb o'ylaydi. Ayni dam bunday o'ylardan doim yaxshilik umid qiladi. Ana shu umidi bugun amaliy qiyofa kasb etdi.

— Bolaligidan kitob o'qishga qiziqaman. Ular eng yaqin do'stlarim. Bora-bora o'ylay boshladim: "Nima uchun faqat men kitob o'qiyman? Nega boshqa qishloq odamlari bu ne'matdan bebahra qolishi kerak?" — deydi Nargiza. — Ularni kuzata turib, bir narsaga amin bo'lganman. Tirikchilik ularni domiga tortib ketgan. Farzandlari bilan deyarli ishi bo'lmaydi. Faqat ularning qornini to'q qilsam bo'ldi deb o'ylashadi. Shu bilan umr o'tyapti. Bolalarning taqdiri esa mayda o'lchovlar domida qolib ketgan. Shuni ko'p o'ylab yurdim. Bir kuni televizorda Prezidentimizning: "Men hech bir yoshni e'tiborsiz qoldirmayman", degan gapini eshitdim. Bu so'zlar menga dalda bo'ldi. Shijoat uyg'otdi. Onam bilan maslahatlashib, G'allaorol tumani hokimligidan kutubxonaga ochish uchun yordam so'radim. Ular tashabbusimni qo'llab-quvvatladilar.

Tuman mutasaddilari sa'y-harakati bilan Jiydali mahallasida "Umid" nomli mo'jazgina kutubxonaga qurildi. Unda 1000 ga yaqin kitob bo'lib, nafaqat milliy adabiyotimiz, balki jahon adabiyotining eng sara namunalari mavjud. Kutubxonadan qishloq odamlari va yoshlari bemalol foydalanmoqda.

— Kelgusida Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi, yoshlar yetakchilari va homiylar bilan birgalikda "Umid" kutubxonasi yonidan o'quv xonasi qurib beramiz, — deydi Jiydali mahallasidagi yoshlar yetakchisi Tal'at Fayzullayev.

Ulamolardan biri "Fikri yo'q odamning qiyofasi ham bo'lmaydi. Fikr odamning o'zligini, o'ziga xosligini bildirib, mavjudligini ko'rsatib, talab qilib turadi. Fikr yo'q joyda olomonchilik va johillik kuchayadi", degandi. Bugun har qanday jamiyatning farovon kelajagini, sog'lom

turmush tarzini belgilab beradigan yo'l odamlarning fikrlash qobiliyatini o'stirishdir. Zero, fikr eng shiddatli quroldir. Shu bois, so'nggi yillarda kitobxonlikka katta e'tibor berilmoqda. Birgina "O'zbekiston — 2030" strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri ham yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib qilishga qaratilgan. Jumladan, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida "Yosh kitobxon" tanlovi o'tkazilayotgani, "Mutolaa" mobil ilovasi yaratilgani, "Yosh kitobxon oila" tanlovlari tashkil etilgani ham qaysidir ma'noda yoshlar orasida kitobga oshno qalblar ko'payishiga hissa qo'shmoqda.

Bunday islohotlardan haqli ravishda quvonamiz. Ammo fikriy qaramlik, olomoncha kayfiyat, o'zlikdan tonish, maqsadsizlik targ'ib etilayotgan bir pallada har bir yurtdoshimiz kitobxonlik targ'ibotiga o'z hissasini qo'shishi kerak. Bunda o'z "Umid"i bilan chekka qishloqdagi tengdoshlariga ma'rifat ulashayotgan Nargiza Qo'shmonovadan ibrat olsa arziydi.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri